

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN‘AT VA MADANIYAT INSTITUTI
XALQ IJODIYOTI FAKULTETI

“Himoyaga tavsiya etilsin”

Fakultet dekani

_____S.Ikramov

2019-yil “_____” _____

5151700 – Madaniyat va san‘at muassasalarini tashkil etish va boshqarish yo‘nalishi 4-kurs talabasi Siddiqova Munisaxon Rashid qizining **“Madaniy tadbirlarni tashkil etishda innovatsion usullar”** mavzusida yozgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar

_____S.Ikramov

“Madaniyat va san‘at muassasalarini tashkil etish va boshqarish” kafedrası katta o‘qituvchisi

Taqrizchi

_____S.To‘ychiyeva

O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat instituti falsafa fanlari doktori, professor v.b.

“Himoyaga tavsiya etilsin”

Madaniyat va san‘at muassasalarini tashkil etish va boshqarish kafedrası mudiri

_____B.Salaydinov

2019-yil” _____” _____

TOSHKENT-2019

MUNDARIJA:

| | | |
|---------------|--|--------|
| | KIRISH | 3-bet |
| I-BOB | MADANIY TADBIRLARNING SHAKLLARI, TURLARI VA ULARNI TASHKILLASHTIRISHNING INNOVATSION USULLARI | 8-bet |
| 1.1 | Madaniy tadbirlarning shakllari va turlari, ularni tashkillashtirishning innovatsion usullari | 8-bet |
| 1.2 | Madaniy tadbirlarni tashkil etishning ijodiy hamda tashkiliy jarayonlari haqida..... | 26-bet |
| 1.3 | Madaniy tadbirlar –tarbiya vositasi sifatida..... | 38-bet |
| II BOB | BAYRAMLAR MADANIY TADBIRLARNING OLIY SHAKLI | 40-bet |
| 2.1 | Madaniy tadbirlarni tashkil etishning metodologik (uslubiy) asoslari..... | 40-bet |
| 2.2 | Ssenariy–madaniy tadbirlarning asosi (davlat tadbirlari misolida). | 50-bet |
| 2.3 | Madaniy tadbirlarda ishlatiladigan texnik vositalar va zamonaviy interfeyslardan foydalanish yo‘llari..... | 64-bet |
| | XULOSA | 70-bet |
| | GLOSSARIY | 72-bet |
| | FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI | 77-bet |

KIRISH

“Bugungi kunda dunyoda innovatsion g‘oyasiz, ilm-fan yutuqlarisiz bironta sohaning rivojlanishi mumkin emas. Zahmatkash fidoyi olimlarimizni xudo bergan odamlar, desak, xato bo‘lmaydi. Ularni boshqalar bilan teng qilish mumkin emas. Bunday insonlar mingtadan, milliontadan bitta tug‘iladi. Ularni asrab-avaylashimiz, har tomonlama qo‘llab-quvvatlashimiz lozim. Bitta ilm namoyondasini yetishtirish uchun davlat, jamiyat 30 yil vaqt sarflaydi. Olim bo‘lish uchun inson umr bo‘yi harakat qiladi”.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti-Shavkat Mirziyoyev¹

Globalashuv sharoitida raqobat tobora kuchayib borayotgani davlatimizni yanada barqaror va jadal sur‘atlar bilan rivojlantirish uchun mutlaqo yangi yondashuv hamda tamoyillarni ishlab chiqish va ro‘yobga chiqarishni taqozo etmoqda.²

Mavzuning dolzarbligi. Bugungi kunda malakatimizda madaniyat va san‘at sohalariga e‘tiborning davlat siyosati darajasida ekanligi mamlakatimizda sohaga oid qonun va qarorlarning qabul qilinishi va uni amalda tadbiiq etishning yangicha usullaridan foydalanilishi fikrimizning yaqqol dalili sanaladi.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgan dastlabki kunlardanoq ma‘naviyat, mafkura, g‘oya, san‘at, madaniyat va ma‘rifat masalalariga alohida e‘tibor berila boshladi. Barcha ma‘naviy-ma‘rifiy faoliyat turli mavzulardagi madaniy tadbirlarni tashkil etish orqali amalga oshiriladi. Gap tadbirlarni tashkil etish haqida borar ekan, unda madaniy tadbirlarning dramatik asosi bo‘lmish puxta ssenariylar yaratish, sahnalashtirish va tashkil etish barcha madaniyat xodimlari oldiga katta ma‘suliyat yuklaydi.

¹ Salimov O., Quronboyev Q., Bekmurodov M., Tangirov L., Halilov N. “Yoshlarga donolar o‘giti” G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.- T.: 2018 y. 16-bet.

“O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning ma‘ruzalaridan iqtiboslar”

²O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son Farmoni. 2017-yil, 9-fevral

Davlatimiz tomonidan amalga oshirilayotgan iqtisodiy, siyosiy jarayonlar, keng qamrovli islohotlarning negizida ham ma'naviy-ma'rifiy, axloqiy va tarbiyaviy ishlarning hamohangligini kuzatish mumkin. Shu jihatdan olib qaralganda, madaniyat va san'atga aloqador bo'lgan sohalarda yurt tinchligi, Vatan ravnaqi, komil inson kabi tushunchalar talqini muhim ijodiy va tashkiliy jarayonlarni qamrab oladiki, unda madaniyat xodimlari, san'at sohasi vakillari zimmasiga katta ma'suliyat yuklanadi. Aholini ma'naviy kamol toptirish, madaniy bilimlarini oshirish, ularni pok va halol yashashga chaqirish, mustahkam e'tiqodga ega bo'lish kabi xususiyatlarni shakllantirishda madaniy tadbirlar tashkilotchilariga alohida bilim, ko'nikma, mahorat va mehnat talab qilinadi.

Madaniy tadbirlarni tashkil etishdan asosiy maqsad - milliy va dunyo madaniyatlarining eng yaxshi namunalarini keng targ'ib qilish va ommalashtirish, o'sib kelayotgan avlodni, zamonaviy yoshlarni ma'naviy tarbiyalash, millatiga, tarixiga, insoniyatga bo'lgan hurmatni uyg'otish va saqlash, ma'naviy-ma'rifiy islohotlarda faol ishtirok etishdir. Murakkab ijtimoiy voqelik sifatida bu tadbirlarning o'ziga xosligi shundaki, u insoniyat avlodlarining mehnati va bilimlarini o'ziga singdirib oladi, saqlaydi, doimiy boyitib boradi va ularni kelgusi avlodlarga yetkazib beradi. Mana shunday ulkan ishlarni amalga oshirishda madaniy tadbirlarni tashkil etish va bu orqali inson tarbiyasi –hozirgi kunning dolzarb masalalaridandir.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, kishilar ongi, dunyoqarashi, tafakkuri, maqsad va intilishlari, bir so'z bilan aytganda ma'naviy-mafkuraviy olamida, ruhiy tabiati va hatto qiyofasida ulkan o'zgarishlar paydo bo'la boshladi. Bu borada hukumatimizning ma'naviyat, ma'rifat, mafkura, madaniyat, san'at va g'oyaviy yo'nalish borasida olib borilayotgan hayotiy va odilona siyosati muhim omil bo'lib xizmat etmoqda. Zero, gap ma'naviyat, mafkura, g'oya, san'at, madaniyat va ma'rifat haqida borar ekan, unda madaniy tadbirlarning jamiyat taraqqiyotidagi muhim ahamiyati beqiyosligini hech kim inkor etolmaydi. Ommaviy san'at asarlari hisoblangan teatr, kino yoki ommaviy tadbirlarni mazmunli, maqsadli niyatga erishishda san'atning barcha turlaridan foydalaniladi

va tomoshabinlarga taqdim etiladi. Ammo, deyarli tashkil etiladigan barcha tadbirlarning asosida ma'naviy, tarbiyaviy va axloqiy, ma'rifiy jarayonlarning yotganligiga shubha yo'q. Tadbirlar shiori ham bejizga tanlov asosida qabul qilinmaydi. Chunki har bir o'tkazilayotgan tadbir kishilarda vatanparvarlik, ona yurtni sevish va uning rivoji uchun astoydil sadoqat bilan xizmat qilish ruhini oshirishi lozim.

Har yili Respublikamiz Prezidenti tomonidan e'lon qilinayotgan "Yil"larga mos tadbirlarning ishlab chiqilishi, shu yillarga mo'ljallangan davlat dasturlari, rejalar va vazifalarning bajarilishining negizida ham asosan tadbirlarni tashkil etish orqali amalga oshirish lozim bo'lgan ishlarni nazarda tutish maqsadga muvofiqdir. Yurtimizda 1991 yil – "Mustaqillik yili", 1994 yil – "Amir Temur yili", 1995 yil – "Bolalar yili", 1996 yil – "Oila yili", 1999 yil – "Ayollar yili", 2000 yil – "Sog'lom avlod yili", 2001 yil – "Onalar va bolalar yili", 2002 yil – "Qariyalarni qadrlash yili", 2003 yil – "Obod mahalla yili", 2004 yil – "Mehr va muruvvat yili", 2005 yil – "Sihat - salomatlik yili", 2006 yil – "Homiylar va shifokorlar yili", 2008 yil – "Yoshlar yili", 2009 yil – "Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili", 2010 yil – "Barkamol avlod yili", 2011 yil – "Kichik biznes va tadbirkorlik yili", 2012 yil – "Mustaxkam oila yili", 2013 yil – "Obod turmush yili", 2014 yil – "Sog'lom bola yili", 2015 yil – "Keksalarni e'zozlash yili", 2016 yil – "Sog'lom ona va bola yili", 2017 yil – "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili", 2018-yil – "Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili" va shu yilning esa "Faol investitsiya va ijtimoiy rivojlanish yili" deb e'lon qilinishi - yurtimizdagi barcha jarayonlarni qamrab olganligi bilan alohida mazmunga ega bo'lib, davlat dasturlari asnosida turli tadbirlarni tashkil etish esa biz kabi bo'lajak madaniyat va san'at sohasi xodimlari zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi. Yil davomida o'tadigan tadbirlarni shu mavzularga yo'naltirish, yilning davlat dasturida belgilangan vazifalarini hayotga tadbiq qilish, dasturda belgilangan maqsad va vazifalar mohiyatini aholi (yoshlar, katta yoshdagilar, keksalar) ongiga singdirish - madaniy tadbirlar tashkilotchilarining asosiy qilishlari kerak bo'lgan vazifalaridandir.

Mana salkam yigirma sakkiz yil mobaynida respublikada amalga oshirilayotgan islohotlarning mohiyati, mamlakatimizning xalqaro maydondagi nufuzini yuksaltirib borayotgani, Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligida O‘zbekistonda qanday muhim islohotlar hayotga tatbiq etilganining ahamiyatini o‘rganish va xalqimizning keng qatlamlariga chuqurroq ochib berish nihoyat dolzarb ma’rifiy vazifadir. O‘tgan yili Mustaqillik bayrami shodiyonasini “Aziz va yagonamsan, jonajon O‘zbekistonim!” degan g‘oyani o‘zida mujassam etgan tashkiliy-amaliy, ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar hamda targ‘ibot-tashviqot ishlari dasturi asosida tashkil etish maqsadga muvofiq topildi.³

Ishning maqsadi. Madaniy tadbirlarni tashkil etishning nazariy asoslarini, madaniy tadbirlar turlari, rejissyorlik va aktyorlik mahorati sirlari va sahnalashtirish usullarini, tadbirlar dramaturgiyasi, tadbirlarni tashkil etishning amaliy va metodik jihatlarini o‘rganish hamda ularni amaliyotda tatbiq etish bo‘yicha ilmiy asoslangan amaliy tavsiyalar ishlab chiqish bitiruv malakaviy ishining maqsadi sanaladi.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadiga asoslanib quyidagi **vazifalar** belgilanadi:

–Madaniy tadbirlarni tashkil etishning asoslari, sahnalashtirishning innovatsion usullari, ijodiy va tashkiliy ishlarni amalga oshirish to‘g‘risida **tasavvurga ega bo‘lishi**;

–Madaniy tadbirlar turlari, tadbirlar dramaturgiyasini yaratish, sahnalashtirish qonuniyatlarini, madaniy tadbirlar turlari xususiyatlarini **bilishi va ulardan foydalana olishi**;

–talaba madaniy tadbirlarni sahnalashtirish (tashkil etish), jarayonlarni tahlil qilish usullarini, ijodiy va tashkiliy ishlardagi muammolar bo‘yicha yechimlar qabul qilish **ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak**.

- Madaniy tadbirlarning shaxs, jamiyat va davlat hayotida tutgan o‘rni;

³ Qodirov A., Narbayeva T., Nurmatova M., Quronov M., Bobojonova D., Mamatov X., Muhitdinova F., To‘rayev SH., Daminov I., ... “Aziz va yagonamsan, jonajon O‘zbekistonim!” uslubiy qo‘llanma. T.; Muharrir nashriyoti, 2018 y.

- Madaniy tadbirlarni rivojlantirishda innovatsion usullarga asoslangan samarador faoliyat;

- Mamlakatimizda sohani rivojlantirishga bo'lgan e'tibor;

Ishning ob'ekti. Madaniy tadbirlarni tashkil etishda innovatsion usullar tadqiqotning ob'ekti hisoblanadi.

Ishning predmeti. Madaniy tadbirlarni tashkil etishda innovatsion usullar bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlar hamda huquqiy bazaning mustahkamlanishi bitiruv malakaviy ishining predmeti hisoblanadi.

Ishning hajmi va tarkibiy tuzilishi. Bitiruv malakaviy ishi kirish, o'zaro bog'langan 2 ta bob 6 ta parafrof, xulosa, glossariy va foydalanilgan adabiyotlardan tarkib topgan bo'lib, 80 betda ifodalangan.

I-BOB. MADANIY TADBIRLARNING SHAKLLARI, TURLARI VA ULARNI TASHKILLASHTIRISHNING INNOVATSION USULLARI.

1.1. Madaniy tadbirlarning shakllari va turlari ularni tashkillashtirishning innovatsion usullari

Bugun biz davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan yaxshilashga qaratilgan innovatsion rivojlanish yo‘liga o‘tmoqdamiz. Bu bejiz emas, albatta. Chunki zamon shiddat bilan rivojlanib borayotgan hozirgi davrda kim yutadi? Yangi fikr, yangi g‘oya, innovatsiyaga tayangan davlat yutadi.

Innovatsiya – bu kelajak degani. Biz buyuk kelajagimizni barpo etishni bugundan boshlaydigan bo‘lsak, uni aynan innovatsion g‘oyalar, innovatsion yondashuvlar asosida boshlashimiz kerak.⁴

Rejalashtirilgan va o‘tkazilishi kerak bo‘lgan madaniy tadbirlarning asosiy vazifasi – milliy va dunyo madaniyatlarining eng yaxshi namunalarini keng targ‘ib qilish va ommalashtirish, o‘sib kelayotgan yosh avlodni, zamonaviy yoshlarni ma‘naviy tarbiyalash, millatiga, tarixiga, insoniyatga bo‘lgan hurmatni uyg‘otish va saqlash hisoblanadi. Zotan, xalqlarning o‘ziga xosligi va betakrorligini saqlash, tarixan shakllangan qadimiy milliy madaniyatlar, san‘at va xalq ijodiyoti, yuz yillar davomida tarkib topgan milliy an‘ana va urf-odatlarining o‘zaro yaqinlashuvi va bir-birini boyitishi uchun, dunyoda yashayotgan turli millat va elat vakillari o‘rtasida o‘zaro hurmat muhitini qaror toptirish uchun madaniy tadbirlarning ahamiyatini alohida ta‘kidlash maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, madaniy tadbirlarda shaxs o‘z insoniy fazilatlarini shakllantira boshlaydi, yashirin, betakror, individual hususiyatlari, qobiliyatlarini kashf etadi, ularni o‘stiradi va rivojlantirib boradi, jamiyat, hayot bilan muloqotga kirishadi. Murakkab ijtimoiy voqelik sifatida bu tadbirlarning o‘ziga xosligi shundaki, u insoniyat avlodlarinig

⁴ Salimov O, Quronboyev Q, Bekmurodov M, Tangriyev L, “Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari” O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev asarlari va ma‘ruzalaridan olingan fikrlar, T.: Yoshlar nashriyot uyi, 2019 y. 55-b.

mehnati va bilimlarini o'ziga singdirib oladi, saqlaydi, doimiy boyitib boradi va ularni kelgusi avlodlarga yetkazib beradi.

Mana shunday ulkan ishlarni amalga oshirishda madaniy tadbirlarni maqsadli tashkil etish, uni tarbiyaviy jarayonlarga yo'naltirish –hozirgi kunning dolzarb masalalaridandir.

"Ma'naviy tadbirlar" - eng avvalo milliy g'oya asosida xalqni birlashtirish, jipslashtirish, yosh avlod ongi va qalbida ezgu g'oyalarga sadoqat tuyg'ularini tarbiyalashga, shuningdek, kishilarni ma'naviy tajovuzlardan ogohlikka chorlash, ularning mohiyatini anglab yetishga qaratilgan tizimli shakllar, usullar, vositalar va maqsadli amaliy xarakterli majmuidir. Ma'naviy - ma'rifiy tadbir ta'lim - tarbiyaning muhim yo'nalishi sifatida uning asosiy maqsadi muayyan masala bo'yicha bilim berish bilan birga anglangan hatti - harakatga yo'naltirishdan iborat bo'lib, ma'naviy - ma'rifiy tadbirlarni tashkil etishning ikkita asosiy yo'nalishi mavjuddir. Birinchidan, insoniy fazilatlarni ulug'lash, yuksak ma'naviyatli kishilar xayoti va faoliyatini ta'riflash, ularni ibrat, namuna qilib ko'rsatish orkali kechadi. Ikkinchidan esa - muayyan illatlarni koralash, ulardan xalos bo'lishga da'vat, targ'ibot qilish orqali amalga oshiriladi va bunda erishilgan yutuklarni xolisona e'tirof etib yo'l ko'yilgan kamchiliklar xolisona nuqtai - nazardan baholanishi muxim ahamiyatga egadir. Ma'naviy - ma'rifiy tadbirlarda ulug' ajdodlarimizning hayot yo'li, qoldirgan merosini biryoklamalikka berilmay, to'g'ri va haqqoniy aks ettirishga, fakat o'tmishdagi siymolar bilan cheklanib kolmasdan, bugungi kunda yon - atrofimizda faoliyat ko'rsatayotgan ilg'or zamondoshlarimizni o'rnak sifatida ko'rsata bilish muhim ahamiyatga egadir. O'tmish va kechagi kun bilangina yashab kolmasdan, bugungi kundagi murakkab vokelikka tayanib, jamoatchilik fikrini shakllantirishning eng zamonaviy, ta'sirchan usullari va vositalaridan foydalangan holda ish olib borish hayotning qat'iy talabidir. Ma'naviy - ma'rifiy tadbirlarda bugungi murakkab an'naviy, jarayonlarni ilmiy - amaliy jihatdan atroflicha tahlil qilish va baholash, buzg'unchi g'oyalarning kimga va nimaga karshi qaratilganligini aniqlash, ma'naviy -tajovuzlar mohiyatini ochib berish alohida ahamiyatga ega. Ana

shundagina ma'naviy – ma'rifiy tadbirlar mazmun - mohiyati bilan odamlar kalbiga va ongiga yetib boradi.

Masalan, **davra suhbatini** olaylik. Davra suhbatini, rasmiy bo'lmagan holatda, kichik auditoriyalarda, ma'lum bir mavzu atrofida suhbat tariqasida tashkil etiladi. Shunga ko'ra madaniy tadbirning bu turida katta tayyorgarlik ko'rishga unchalik ham hojat bo'lmas kerak. Sababi, bunda bir yoki ikki kishi asosan, o'sha mavzu bo'yicha qisqacha ma'lumot beradi (yoki ma'ruza qilishi ham mumkin) va undan keyin savol-javob tariqasida fikrlar almashinib, birgalikda xulosalar chiqariladi. Masalan, "Reproduktiv salomatlik" bo'yicha o'tkaziladigan davra suhbatiga o'sha soha bo'yicha mutaxassislar taklif etiladi va yosh oilalar yoki qizlar ishtirokida tashkil etiladi. Bunda tashkiliy yoki ijodiy ishlarga katta mehnat sarf qilinmasligi ham mumkin. Ya'ni rassom chaqirib sahna bezagi, rejissyor taklif qilib dastur ketma-ketligini va boshqa ishlarni amalga oshirish shart emas. Buni har qanday sharoitda, hattoki oddiy sharoitda (kichik auditoriyalarda) ham o'tkazib yuborish mumkin. Lekin tadbirga badiiy va ijodiy jihatdan yondoshish tadbirning salmog'ini oshiradi. Masalan, o'sha xududga tegishli bo'lgan madaniyat va aholi dam olish markazlarida tashkil etilgan havaskorlik kollektivlari ishtirokida shu mavzuga mos repertuarlardan kiritilsa, tadbir yanada ta'sirchan bo'lishi mumkin.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, davra suhbatlarida ma'ruzalar o'qish asnosida ham tadbirlar tashkil qilinishi mumkin. Turli mavzularda tashkil etiladigan ma'ruza va suhbatlar komil insonni shakllantirishda katta samara beradi. Ilmiy ma'ruzalar ko'pincha ma'lum mavzuni ilmiy ravishda yoritishga qaratilgan bo'lib, aniq auditoriyani qamrab oladi. Ma'ruza va suhbatlar insonlarni ilmiy, bilimli qilishga yo'naltirilgan bo'lib, ularni umumiy bilimlari doirasini kengaytirishga xizmat qiladi. Og'zaki, davra suhbatlari ham insonlarni bir-biri bilan yaqinlashtiradi, ularni hamjihatlikka undaydi. Ayniqsa, yoshlar bilan o'tkaziladigan og'zaki suhbatlar katta samara beradi. Suhbat o'tkazayotgan ma'ruzachi o'z tinglovchilari bilan uzluksiz bog'lanib, yaqin munosabatda bo'ladi. Tinglovchilarning yoshlari va qiziqishlariga qarab, zarur masalalarni muhokama qilishda ularni ham bevosita jalb etadi. Ma'ruzachi o'zi bayon etayotgan mavzuni

ta'sirchan va tushunarli bo'lishi uchun harakat qiladi. Tarbiyaviy, ilmiy, ma'naviy-ma'rifiy, huquqiy, tibbiy, ekologiya kabi yo'nalishlar bo'yicha suhbat, savol-javoblar bolalarning bilim darajasi, dunyoqarashi va turli sohalar bo'yicha savodini oshirishda o'z mahsulini bermay qolmaydi. Undan tashqari, muhim muammolarni hal qilishda, to'g'ri qaror qabul qilishlarida ham ma'ruza va davra suhbatlarining roli kattadir.

Madaniy tadbirlarning juda ko'p qo'llaniladigan turlaridan biri – ***konsertlarni va spektakllarni tashkil etishdir.*** “Konsert” tushunchasi lotinchadan “o'zishaman” degan ma'noni anglatadi. Konsertlar o'z tuzilishiga qarab turlicha bo'ladi. Yakkaxon (solo) konsert, guruhlar, gala konsert va h.k. U.Qoraboev o'zining “Badiiy ommaviy tadbirlar” kitobida konsertlarni 3 turini, ya'ni oddiy (filarmonik) konsert, teatrlashtirilgan konsert hamda ma'lum bir mavzu asosida o'tkaziladigan konsert turlarini ko'rsatib o'tadi.

Oddiy filarmonik konsertda boshlovchi tomonidan konsert dasturi e'lon qilib boriladi. Kuy-qo'shiqlar bir-biriga mavzu jihatidan turlicha, bir-biriga bog'lanmagan bo'lishi mumkin. Konsertning bu turi insonlarni dam olish, xordig'ini chiqarish, bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazishda ko'p qo'llaniladi.

Teatrlashtirilgan konsertlar esa murakkab ijodiy va tashkiliy jarayonlarni talab qiladigan turlaridan hisoblanadi. Bunda konsert ma'lum bir g'oya, mazmun va voqeaning qizil chizig'iga joylashtiriladi. Hamma kuy-qo'shiqlar ham ham bunda tadbirga mos kelavermaydi. Masalan, “Navro'z” bayramida gruzincha “Lezginka”, ruscha “Katyusha” yoki “G'alaba kuni”(Den Pobedi) kabi kuy-qo'shiqlar mos kelmaydi. Teatrlashtirilgan konsertlarning o'ziga xosligi shundaki, bunda dastur teatr dramaturgiyasi qonuniyatlariga asoslangan holda tashkil etilishi lozim bo'ladi.

Ma'lum bir mavzu asosida o'tkaziladigan konsert turlarini tashkil etishda tadbirga ijodiy yondoshuv talab etiladi. Bunda dastur aniq mavzu asosiga quriladi. Masalan, 8-Mart Xalqaro-xotin qizlar bayramida ko'proq onalar, qizlar, ayollarni ulug'lashga qaratilgan kuy-qo'shiqlar, Mustaqillik bayramlarida Vatan, Ona yurtni madh etuvchi kuy-qo'shiqlarda iborat bo'lgan repertuarlardan foydalaniladi.

Ammo bu degani, tadbirni faqat bitta mavzu atrofida yuritish kerak desak, tomoshabin, tinglovchini zeriktirib qo'yishimiz mumkin. Asosiy mavzu chizig'i saqlanib qolib, uning atrofida turli, rang-barang repertuarlardan foydalanish ham mumkin.

Ammo, ko'pgina tadbirlarda shu hududda tuzilgan, o'sha joydagi to'y-tomoshalarda xizmat qilib yurgan ansambllar taklif qilinib, konsert dasturlarida ishtirok etadilar. To'y boshqa, madaniy tadbirlarni tashkil etish o'ziga xos boshqacha yondoshuvni talab etadi. Shuning uchun ham konsert dasturini tayyorlaganda uning tarbiyaviy jihatlarini hisobga olish zarurdir.

Konsert va spektakllar tadbirlar ichidagi eng ta'sirchan shakllaridan hisoblandi. Mazmun va g'oyaviy tomondan yetuk, yoshlar va bolalar muammolarini hal qilishda ko'maklashuvchi, ularni vatanga muhabbat, insonlarga mehr-muruvvatli bo'lishga chorlovchi spektakllar, yuksak darajada ijro etilgan bolalar badiiy jamoalarining konsert dasturlari yoshlarning ko'ngildagidek dam olishlarini tashkil qilish, hamda ularda estetik saviyani o'stirishda va san'atning ko'plab yo'nalishlari bo'yicha qiziqishlarini orttirishda alohida o'rin egallaydi. Bolalar badiiy jamoalarining konsert dasturlari va ular uchun sahnalashtirilgan spektakllarni muntazam ravishda ko'rib borgan bolalarda ushbu san'at turlariga bo'lgan qiziqish o'sib, o'zlarida ham qo'shiq aytish, raqsga tushish, musiqa asboblari kuy ijro etish yoki biror-bir bolalar spektaklida o'zi sevgan timsolni yaratish ishtiyoqi paydo bo'ladi. Bu havas va ishtiyoq ularni turli badiiy havaskorlik to'garaklariga qatnashishga yetaklaydi. Maqsad va ma'nosi, ijro uslublari milliy qadriyatlarimiz, ma'naviyatimizga zid bo'lgan shovqin-suronli qo'shiq va raqslar nafaqat ijrochi yoshlarga, balki ularni tomosha qilayotgan bolajonlarimizga, hattoki katta yoshdagi kishilarga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Tadbir va konsert dasturlarimizda ona vatanni, xalqlar do'stligi, milliy o'zligimiz, el-yurt tinchligi, azaliy qadriyatlarimizni madh etuvchi hamda ulug'lovchi qo'shiqlarga keng yo'l berilishi lozim. Ayniqsa xalq ijodiyoti asosidagi folklor qo'shiqlarimiz, milliy raqslarimizning ijrosi, farzandlarimizda azaliy qadriyatlarimizga hurmat hamda milliy o'zligimizga bo'lgan e'zozni kuchaytiradi.

Madaniy tadbirlar orasida eng ko‘p ko‘llaniladigan shakllardan biri ***mavzuli kechalardir.***

Mavzuli kechalarda ijrochilar va boshqa qatnashchilar bir butunlikni tashkil qilganligi uchun o‘z mohiyatiga ko‘ra ommaviy bayramlarga yaqin turadi. Mavzuli kechalarda jamiyat jamoa uchun ijtimoiy jihatdan muhim hisoblangan voqealarga, sanalarga bag‘ishlab o‘tkaziladi. Masalan, “IShID fitnasi”, “Qullikka rozi bo‘lmang”, "Milliy qadriyatlar -bizning qadriyatlar"; "Ommaviy madaniyat tahdidi va unga qarshi kurash zaruriyati", "Giyohvandlik umr zavoli", “Ichish, chekish va zararli odatlarga qarshi kurashaylik!”, “Giyohvanlikning salbiy oqibatlari”, “OITS kasalligining oldini olish”, Diniy eksterimizm, missionerlikning mohiyati” kabi va undan tashqari mamlakatimiz ijtimoiy, siyosiy, madaniy hayotidagi kundalik voqea-hodisalarga, mehnatga bag‘ishlangan mavzuli kechalarni tashkil etish orqali insonlar ongiga ta‘sir qilish va ularda salbiy oqibatlarga nisbatan qarshi tura olish immunitetni shakllantirish kabi vazifalar qo‘yilgan holda yondoshish maqsadga muvofiqdir.

Madaniyat va san‘at maskanlarida o‘tkaziladigan mavzuli kechalarni o‘tkazishda belgilangan chora - tadbirlarni amalga oshirishga ijrochilardan tashqari boshqa qatnashchi-tomoshabinlar ham jalb qilinadi. Bunda tadbirning samaradorligiga erishishda tadbir ishtirokchilarini passiv kuzatuvchi emas, balki tadbirlarning faol qatnashchilariga aylanishiga erishish tadbirning saviyasini oshirishga xizmat qiladi. Tadbirni tashkil etishdan asosiy maqsad, sog‘lom avlodni tarbiyalash, erkin fuqaro ma‘naviyatini shakllantirish, barkamol insonni voyaga yetkazish kabi vazifalar qo‘yiladi.

Hozirgi kun madaniyat markazlarida, ma‘rifat tarqatuvchi maskanlarda, maktab- kollej va boshqa tashkilotlarda madaniy tadbirlarni samarali tashkil etishni talab qiladi. Chunki, har bir tadbir tashkil etilishida ma‘lum bir maqsadga qaratilgan bo‘ladi.

Zamon jadal rivojlanayotgan bir davrda internet ma‘lumotlaridan to‘g‘ri foydalanish ham yuqorida sanab o‘tilgan tushunchalarni mohiyatini anglagan holda yondoshishni talab etadi. Ko‘pincha internet saytlarida “niyati buzuq”larning

maqsadlari xas-po'shlanib, harakatlarini ma'naviy va ahloqiy jihatdan oqlash, ya'ni go'yoki majbur bo'lganliklarini asoslashga harakat kiladilar. Bunday saytlar ularning faoliyatini oqlovchi "qahramonligini" kuylovchi qo'shiqlar, kliplar bilan uyg'unlikda berilishidan maksad ularning mafkuraviy va hissiy ta'sir quvvatini oshirishdan iboratdir. Bunday sharoitda masalaning yana bir muhim jihatiga e'tiborni karatish alohida ahamiyatga egadir. I.A.Karimov ta'kidlaganlaridek, "Bugungi kunda yoshlarimiz nafaqat o'quv dargohlarida, balki radio -televediniya, matbuot, internet kabi vositalar orqali ham rang - barang axborot va ma'lumotlarni olmoqda. Jahon axborot maydoni tobora kengayib borayotgan shunday bir sharoitda bolalarimizning ongini faqat o'rmab -chirmab, uni ko'rma, buni ko'rma, deb bir tomonlama tarbiya berish, ularning atrofini temir devor bilan o'rab olish, xech shubhasiz, zamonning talabiga ham, bizning ezgu maqsad muddaolarimizga ham to'g'ri kelmaydi. Nega deganda, biz yurtimizda ochiq va erkin demokratik jamiyat qurish vazifasini o'z oldimizga qat'iy maqsad qilib qo'yganmiz va bu yo'ldan hech qachon qaytmaymiz"⁵. "Kimki axborotga ega bo'lsa, u dunyoga egalik qiladi", degan fikr bugungi kunda barcha tomonidan e'tirof etilgan. Shunday ekan, bugungi kunda qatnashchilarda axborotni qabul qilish madaniyatini tarbiyalash ilmiy -amaliy ahamiyatga egadir. Har bir tinglovchida axborotni eshitar ekan: "Bu axborotni kim uzatayapti"?, "Nima uchun uzatayapti"?, "Qanday maqsadda uzatayapti"?, "Nima demoqchi, maqsadi nima"?" kabi savollarni o'z - o'ziga berishga va unga asosli javob topish ko'nikmasini shakllantirish zarurdir. Ana shundagina muayyan g'oyalar ta'siriga tushib qolishning oldini olish uchun shunday tadbirlarni tashkil etish, uyushtirish maqsadga muvofiqdir.

Ba'zi manbalarda tematik kechalar madaniy kechalar ham deb berilgan. Bunday tadbirlarni o'z navbatida mavzuli kechalar, xayriya kechalari, ezoz kechalari, xotira kechalari, uchrashuv kechalari, badiiy-musiqiy kechalar, askiya va

⁵ Karimov .I.A. Yuksak ma'naviyat- yengilmas kuch.-T.: Ma'naviyat 2011-152 b

kulgu kechalari, yubiley kechalari, savol-javob kechalari, bitiruv kechalari deb atash ham mumkin.

Tadbirlarni yana bir turlaridan *debat* – ikki tomonlarning dolzarb mavzular bo‘yicha oshkora fikr almashinuvi asosida maxsus tashkillashtiriladigan tadbir shakli. Bunda ishtirokchilar o‘zlarining haq ekanliklarini bir-birlariga emas, balki uchinchi tomonga tushuntirishliklari va isbotlashliklari nazarda tutiladi.

Debatlarni aniq bir mavzu atrofidagi ikki yoki undan ortiq insonlar yoki guruhlar o‘rtasidagi ochiq tortishuvlar, fikr, mulohazalar, bahs-munozaralar asnosida tashkil etilishiga qaramay uning ahamiyatli jihatlari kengdir. Insonlar (tinglovchi, tomoshabin) muammolarni o‘rtada fikr almashinayotgan, bahs-munozara yuritayotganlarning fikrlarini tahlil qilish asosida ko‘p narsalarni eslab qoladilar.

Debatning masalan, davra suhbatidan farqi shundaki, davra suhbatida asosan bitta yoki ikkita ma’ruzachi yoki shu mavzu bo‘yicha fikrlarni rivojlantiruvchi bo‘lsa, xulosa chiqarish tinlovchi (yoki tomoshabin)ning o‘zlariga qoldiriladi. Debatda esa aynan shu masala, o‘zi ilgari surayotgan g‘oyani uchinchi tomonga (tomoshabin, tinglovchi va h.k) tushuntirib, isbotlab berishi talab etiladi. Ishtirokchining mavzuni aniq tushuntirib berishi va isbotlash uchun esa anashu mavzuga tegishli bo‘lgan barcha savollarga tayyor turishi kerak bo‘ladi.

Masalan, sahna san’ati bo‘yicha o‘tkaziladigan debatlarida sahnalashtirishga oid tushunchalarning xilma-xilligi, o‘xshash tomonlari, bir rejissyorning fikriga ikkinchisining qo‘shilmasligi yoki aksincha uni qo‘llab-quvvatlashi, sahnalashtirilayotgan asarlardagi kamchiliklar, yutuqlar haqida fikr almashinish asnosida tashkil etiladi. Ikkita guruh (bular san’atkorlar va tanqidchilar, shofyorlar va DAN xodimlari va h.k) o‘rtasidagi aniq mavzu atrofidagi bahs-munozarani boshlovchi boshqarib turishi mumkin.

Debatlar tadbirlarning eng sinalgan turlaridan bo‘lib, ko‘proq savol-javob shaklida tashkil etiladi. Madaniy tadbirlarning bu ko‘rinishi ko‘proq televideniya kuzatish mumkin. Boshlovchi bir mavzu bo‘yicha o‘rtaga fikrni tashlaydi. Ishtirokchilar esa mavzu bo‘yicha o‘z-fikr mulohazalarini bildiradilar. Shuni

unutmaslik kerakki, barcha tadbirlar nihoyasida xulosa chiqarish lozim bo‘ladi. Debatlarda ham mavzu bo‘yicha oxirgi so‘zni xulosa sifatida berish kerak bo‘ladi. Xorij TVlarida bu ko‘proq siyosiy tus olganligi bilan ajralib turadi. Unda hukumat nomidan ishtirok etayotgan shaxsga turli savollar beriladi.

Aslida, debatlar ko‘proq ilmiy mazmun olsagina ko‘proq samara beradi, ta’siri katta bo‘ladi. Chunki, debatlarda aniq savollar va unga aniq javob kerak bo‘ladi. Undan tashqari, debatlarini o‘tkazish uchun maxsus joy tanlanmaydi. Uni har qanday sharoitda ham tashkil etish mumkin (ba’zi tadbirlarni o‘tkazish uchun aniq auditoriya va joy kerak bo‘ladi, masalan, konsert uchun sahna, sport tadbirlari uchun sport zal kabi).

O‘zbekistonda badiiy sport tadbirlarini tashkil etish bo‘yicha bir qancha tadbirlarni sanab o‘tish mumkin. Sport va san’at sohalari mamlakatimizni dunyoga tarannum qiluvchi o‘ta katta qudratli vositalardan biri ekanligi hammamizga ma’lum.

Badiiy sport tadbirlarini tashkil etishdan maqsad –sog‘lom turmush tarzi, insonlar salomatligi, ularning ham ma’nan ham jismonan yetuk bo‘lishlari, bir so‘z bilan aytganda – insonlarning bo‘sh vaqtlarini mazmunli o‘tkazish, ularga ma’nan hamda jismonan madad berish,

Yurtimiz mustaqillikka erishgach sport tomoshalarining badiiy jihatlariga katta e’tibor berila boshlandi. Shu jihatdan olib qaralganda yurtimizda sport ishlarini yanada takomillashtirish borasida ko‘plab hayrli ishlar olib borilmoqda.

O‘zbekiston televideniya-sida “Sport” kanalining faoliyati bunga misol bo‘la oladi.

Jamiyatimizda olib borilayotgan ma’naviy-ma’rifiy, ijtimoiy-siyosiy jarayonlar insonlar hayotining asosiy qismini qamrab olganligi bois ma’naviy va jismoniy sog‘lomlik jamiyatda ish yuritayotgan, faoliyat ko‘rsatayotgan barcha shaxslarga nisbatan eng oliy ne’mat hisoblanadi.

Sport va san’at – bu mamlakatni boshqa yurtlarga tanishtiruvchi vosita, elchi hisoblanadi. Shuning uchun ham davlatimiz siyosatida sport va san’atni rivojlantirishga qaratilgan bir qancha qaror va farmonlar, farmoyishlariga guvoh

bo'lamiz. «Sog' tanda sog'lom aql» deganlaridek, jamiyat uchun ham sog'lom insonlar zarurdir.

Badiiy sport tomoshalarini yaratishda ssenarist rejissyor va sportchi-murabbiy bilan maslahatlashgan holda ularning xatti-harakatlarini qog'ozga tushirishga harakat qiladi. Bunday tadbirlar asosan, musobaqa shaklida o'tkaziladi. Unga teatrlashtirish usullarini qo'llash esa tadbirning badiiy jihatlarini yanada ko'chaytirishga, faollashtirishga sabab bo'ladi va natijada tomoshabin o'zi kutmagan rohatbaxsh manzaralarga duch keladi, tomoshaga nisbatan faolligi oshib boradi.

San'at noziklikni, mayinlikni, jozibadorlikni, sport esa qat'iyatni, jismoniy baquvvatlilikni, qattiqqo'llikni talab qiladi. Tashqaridan qaraganda bu ikki hodisani bir-biriga bog'lash mumkin emasday tuyuladi. Bunday muvaffaqiyatli uyg'unlikka faqat teatrlashtirish usullari orqali erishish mumkin.

Teatrlashtirilgan sport tomoshalariga ko'plab misollar keltirish mumkin. Afinada bo'lib o'tgan Olimpiada oyinlarining ochilish va yopilish qismlaridagi teatrlashtirish usullarining yuksak mahorat bilan qo'llanganligi bunga misol bo'la olishi mumkin.

Har bir tadbir tomoshasini sahnalashtirish jarayonida rejissyor o'z oldiga oliy maqsadni qoyadi. Ya'ni, bunday tadbirlar tomoshalarining bir-biriga beg'araz, nafrat ko'zi bilan qarashiga yo'l quymasliklari, bir-birlariga nisbatan dushmanga aylanib qolmasliklari, bir-birlarini raqib sifatida emas, do'st, aka-uka sifatida qabo'l qilishga, mag'lubiyatni tan olib, yanada ko'proq mehnat qilishlarini tushunib olishlari va eng asosiysi bir-birlariga hurmat nuqtai nazarida munosabatda bo'lishlariga erishish lozim.

Badiiy sport tomoshalarining yaqqol namunalarini turli sport musobaqalari, Olimpiada o'yinlarining ochilish yoki yopilish marosimlarida kuzatish mumkin.

Sport va san'at alohida soha bo'lsalar ham ularning asl maqsadlari bir xildir.

Badiiy sport tomoshalarini tashkil etish asosan musobaqa, bellashuvlar asnosida tashkil etiladi. Bu jarayonda quyidagi ishlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

- sport maydonini, ya'ni tadbir o'tadigan joyni o'rganish;
- sportchilar va san'atkorlar chiqishlarini ketma-ketligini ishlab chiqish;
- sport va san'at uyg'unligiga erishish;
- sport sohasini badiiylashtirishga oid usullarni ishlab chiqish;
- reputitsiyalarni tashkil etish va boshqa ish jarayonida yuzaga keladigan vaziyatlarni tahlil qilish va ishlarni rejalashtirish;

Badiiy sport tomoshalarini o'tkazishda tadbir tashkilotchilari sport va ijod sohasining uyg'unligiga erishishlari lozim bo'ladi.

Hozirgi kunda O'zbekistonda sport tadbirlarining eng yorqin namunalarini "Barkamol avlod", "Umid nihollari" va "Universiada" sport o'yinlarida ko'rish mumkin.

Ko'rik tanlovlar ham madaniy tadbirlarning eng qiziqarli turlaridan hisoblanadi. Ko'rik-tanlovlar asosan musobaqa shaklida tashkil etiladi. Bunday tadbirlarda tomonlarning bir-biri bilan turli mavzular bo'yicha tortishuvlar, bahs-munozaralar, bellashuvlar orqali namoyon bo'ladi. Masalan, "O'zbekiston – vatanim manim" qo'shiqchilar ko'rik tanlovi ham eng yaxshi ijrochilarni tanlash asnosida uyushtiriladi. Bunda ijrochi o'zini-o'zi tarbiyalaydi, o'z ustida ishlaydi, g'alaba qilish uchun turli vositalarni qo'llay boshlaydi. Bu esa uning yangicha yo'nalishlarni kashf etishiga, yangilik yaratishga undaydi. Eng asosiysi, Vatan, ona yurt, ota-ona, mehr –oqibat, yurt sog'inchi kabi mavzular asosida yaratilgan kuy-qo'shiqlar uning repertuaridan asta-sekinlik bilan joy egallay boshlaydi. Avvalari yengil-yelpi, bachkana, qo'shiqlarni aytib yurgan bo'lsa, endi u o'zgara boshlaydi. Kuy-qo'shiqlarning ma'no-mazmunini tushuna boshlaydi, uni tomoshabinga, tinglovchiga yetkazish usullari haqida o'ylay boshlaydi, bir so'z bilan ta'sir qilish usullarini ishlab chiqa boshlaydi. Bu esa madaniy-tadbir tashkilotchisining bosh maqsadlaridan biri bo'lmog'i lozim. Doirachilarning "Zarb -2015" ko'rik-tanlovida ijro etilgan nomerlar kishini o'ylantirib qo'yadi. Avvallari doira faqat

usul berib turishda kuy-ko‘shiqqlarga jo‘r bo‘lib turuvchi vosita, deb qaralgan. Aslida, bu qarash to‘g‘ri. Lekin “Zarb-2015” ko‘rik tanlovida yosh doirachilarning chiqishlarida faqat usul berish maqsad qilib qo‘yilmaganligi ma‘lum bo‘lib qoldi. Doirachilar turli usullar uyg‘unligida alohida asar yaratish darajasida chalishlari barchani qoyil qoldirdi. Bir so‘z bilan aytganda, ko‘rik –tanlovlar ham madaniy tadbirlarning eng zamonaviy ko‘rinishlaridan biri bo‘lib, tanlov ishtirokchilarini ham tomoshabinlarni ham tarbiyalaydi.

Ko‘rik-tanlovlar nafaqat san‘at yo‘nalishida, balki, faoliyatlarning barcha ko‘rinishlarida tashkil etish mumkin.

Ko‘rik tanlovlarning eng ko‘p qo‘llaniladigan shakli sport tomoshalarini tashkil etishda namoyon bo‘ladi. Teatrlashtirilgan futbol, yugurish bo‘yicha marafonlar, tosh ko‘tarish, akrobatika, gimnastika, suzish va boshqalar shular jumlasidandir.

Ko‘rik –tanlovlar xalq o‘yinlarida ham namoyon bo‘ladi. Ko‘pkari, xo‘roz, it, qo‘chqor urishtirish, kurash, tosh ko‘tarish, sirk tomoshalari va boshqalar xalqimizning avloddan-avlodga, nasldan-naslga o‘tib kelayotgan tadbirlaridandir. Bunday tadbirlar asnosida milliy g‘urur, Vatanga foydasi tegadigan ham jismonan, ham aqlan kuchlilar timsoli yotadi.

Bunday ko‘rik-tanlovlarni tashkil etishda maqsadni aniq belgilash muhimdir.

Televideniya o‘tkazilayotgan turli shou ko‘rinishi olgan ko‘rik-tanlovlar ham insonlarni tarbiyalashni maqsad qilib qo‘ymog‘i lozim.

Yoshlar tarbiyasida ko‘rik tanlovlarni nazorat qilish muhimdir. Ba‘zan, shunda holatlarga duch kelamizki, masalan, qiziqchi, askiyachilar ko‘rik-tanlovlarida tomoshabinni kuldirish uchun turli xil bachkana qiliqlar, “qog‘ozga o‘rashga harakat qilingan uyatsiz so‘zlar”, arabcha raqsga tushyapman, deb o‘ylab, o‘zini kimligini oshkora qilib qo‘ygan yosh o‘zbek qizlarining ochiqdan –ochiq raqs harakatlarini ko‘rik-tanlov deb bo‘lmaydi. Buni rostakam o‘zini namoyon qilish musobaqasi deb qarash mumkin. Aslida esa, ko‘rik-tanlovlar o‘sha xududning, jamoasini manfaatlarini himoya qilishlari kerak. Jamoa uchun harakat

qilib, g'alaba sari intilishi kerak bo'ladi. Bachkana qiliqlar esa ishtirokchini ham, uning jamoasini ham uyaltirib qo'yadi. Bundan tashqari, bunday hatti-xarakterlar yoshlar tarbiyasiga, tomoshabinlar tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatish mumkin.

Mustaqillik sharoitida madaniy tadbirlarni bevosita ta'lim va tarbiya jarayonida hamda bo'sh vaqt sharoitida o'tkazishning mohiyatini ifodalaydigan, uning yo'nalishi, mazmuni hamda shakllarini belgilaydigan hayotiylik, ta'lim-tarbiyaga yo'naltirganlik nuqtai nazardan yondoshish maqsadga muvofiqdir.

Yuqorida aytib o'tganimizdek ko'rik-tanlovlar asosan taqqoslash, solishtirish, baho berish nuqtai nazardan qaralib, ko'proq musobaqalar shaklida tashkil etiladi. Tadbirlarning bu turini juda ko'p sohalarda qo'llash mumkin. Sport, san'at, texnika, ishlab chiqarish, ijtimoiy-gumanitar va boshqa barcha sohalarni o'z ichiga olgan ko'rik-tanlovlar insonlarni soha bo'yicha oldinga intilishlariga, o'z faoliyatlarini kengaytirishlariga, uni mazmunan boyitishga, bilimlarini orttirishga, rag'batlantirishga, oldinga intilishiga katta turtki bo'ladi.

Ko'rik-tanlovlar – insonlar ko'zi bilan ko'rib, tomosha qilib, o'rganib, tahlil qilish asosida baholanib boradi. Ko'rik-tanlovlar o'z-o'zidan vujudga kelolmaydi. Uni aniq dastur asosida tashkil etish kerak bo'ladi.

Ayniqsa bayram tadbirlarida ko'rik-tanlovlarning bir necha xil shakllaridan unumli foydalaniladi. Masalan, birgina Navro'z bayrami misolida oladigan bo'lsak, Navro'z taomlari, turli sport yo'nalishi bo'yicha, jonivorlar musobaqalari (xo'roz, qo'chqorlar musobaqasi, ko'pkari va h.k), polvonlarning kurash, turnik, tosh, shtanga ko'tarish va boshqalar, san'atkorlar orasidagi ko'rik tanlovlar (eng yaxshi qo'shiq, raqs, she'r ijrochisi va boshqalar)ni qo'llash orqali tadbirlarning keng qamrovliligiga erishish mumkin.

Respublikamizda iqtidorlarni, tashabbuskorlarni, shu aziz Vatan uchun sidqidildan xizmat qilayotgan insonlarni rag'batlantirish, ular faoliyatini yanada rivojlantirishga yordam berish, xizmatlarini haqiqiy baholash nuqtai nazaridan ham turli ko'rik-tanlovlar tashkil etilgan. Masalan, oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan tashkil etilgan "Yilning yang yaxshi darslik va o'quv adabiyoti muallifi", Yilning eng yaxshi pedagogi", institutlar aro "Eng yaxshi kafedra",

“Yilning eng yaxshi ma’naviyat va ma’rifat targ‘ibotchisi” va boshqa bir qancha ko‘rik-tanlovlar shular jumlasidandir. Zero Yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek, “Asosiy vazifa, yuqori kasb mahorati va zamoniviy tafakkurga ega, puxta o‘ylangan, har tomonlama to‘g‘ri qarorlar qabul qila oladigan, belgilangan maqsadlarga erishadigan rahbarlar va mansabdor shaxslarning yangi tarkibini shakllantirishdan iborat”.⁶

Yurtimizda o‘tkazilayotgan festival va ko‘rik-tanlovlarni tashkil etishning ham o‘ziga xos tarbiyaviy ahamiyati bor. Festival va ko‘rik-tanlovlar badiiy ijodiyot, ayniqsa bolalar va yoshlarda bo‘lgan ijod va mahoratni ommalashtirishda alohida o‘rin tutuvchi ish shaklidir. Ma’lumki yurtimizda faoliyat ko‘rsatib kelayotgan madaniyat, san’at va xalq ta’limi muassasalarida millionlab bolalar ijodiyotning turli xil yo‘nalishlari bo‘yicha o‘z iqtidorlarini namoyon qilib bormoqdalar. Ularning ijodiy faoliyatiga keng yo‘l ochish, yaqindan yordam ko‘rsatish, yosh iste’dodlarni aniqlash va elga tanitish, ijodiy ishlarini davom ettirish uchun imkoniyat yaratish, ijodiyot maskanlarini texnik va musiqa vositalari, rang-barang liboslar bilan ta’minlash ham zaruratdir.

Viktorinalar – bilimlarning turli sohalariga oid savollarga og‘zaki yoki yozma ravishda javoblar berish tariqasida tashkil etiladigan o‘yinlar asosiga qurilgan tadbirlardan hisoblanadi. Viktorinalar bir-birlaridan savollar turi va murakkabligi, yurish ketma-ketligi, g‘oliblarni aniqlash va rag‘batlantirish tartibi bilan bog‘liq o‘yin qoidalariga ko‘ra farqlanadi.

Viktorinalarda oldindan tayyorlangan savollar majmuidan ham foydalanish mumkin.

“Viktorina” tushunchasi 1920yillarda jurnalist va yozuvchi Mixail Kolsov tomonidan gazetalarda berilgan savollar, rebuslar, topishmoqlar sahifasining umumiy nomi sifatida muomalaga kiritilgan. Bu ko‘ngilochar sahifani Viktor ismli xodim tayyorlaganligi sababli, uning ismi, ya’ni “Viktor” nomi bilan atalgan.

⁶ Salimov O, Quronboyev Q, Bekmurodov M, Tangriyev L, “Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari” O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev asarlari va ma’ruzalaridan olingan fikrlar, T.: Yoshlar nashriyot uyi, 2019 y. 107-b.

Keyinchalik bu atamani “pobeda”, ya’ni g’alaba so’zi bilan bog’laganlar, chunki lotinchada “Viktor” so’zi “g’olib” ma’nosini bildiradi;Televizion viktorinalar. Televizion shou dasturlarining ko’pchiligi teleboshlovchining savollariga javob berish tariqasida amalga oshiriladi. Javoblar ba’zan yakka, ba’zida esa jamoa bilan kengashgan holda berilishi mumkin. Masalan, “Zakovat”, “Intellektual ring”, “Imkon shou”, “Kto xochet stat millionerom?” va testlar topshirish bo’yicha ham turli intellektual o’yinlar shular jumlasidandir. Hozirda internetning paydo bo’lishi bilan maxsus saytlarda Onlayn-viktorinalari ham tashkil etildi. Hozirgi kunda Ginneslar kitobiga kiritilgan eng katta viktorina 2010yilda Belgiyaning Gent shahrida o’tkazilgan bo’lib, unda 2280nafar ishtirokchi qatnashgan.

Lektoriy - ([lot. lectorium](#), [nem. Lettner](#)) - qadimiy katolik cherkovlarida ibodat paytida qo’yiladigan baland yog’och minbar. Lektoriyalar XI asrda Italiyada, keyinroq Germaniya va Fransiyada paydo bo’lgan. Hozirda lektoriyalar – ko’proq ilmiy tadbirlarga oid bo’lib, ma’lum bir mavzu asosida ilmiy fikr almashinadi.

Shóu (ingl. *show* — namoyish etmoq, ruscha - pokaz, predstavleniye) — ko’ngil ochar xarakteriga ega bo’lgan tadbirlardan hisoblandi. Shou-dasturlar tashkillashtirish xususiyatiga ega bo’lib, insonlarni yig’ib ularni ko’ngil ochar dasturlar, turli qiziqarli chiqishlar, kuy-qo’shiq, raqslar, turli o’yinlar asnosida o’tkazish mumkin. Shou-dasturlar uchun maxsus ssenariylar yozilib, repititsiyalar tashkil qilinadi. Tadbirlarning bunday turi ko’pincha televideniya namoyish etiladi.

Muzeylar, madaniyat va san’at maskanlariga, teatr, konsertlar, tomoshagohlarga, ziyoratgohlarga, dam olish maqsadida, ekologiya masalalari bo’yicha tabiat qo’yniga *ekskursiyalar-sayohatlar* tashkil etish ham madaniy tadbirlar turlaridan hisoblanadi.

Mustaqillik sharoitida madaniy tadbirlarni bevosita ta’lim va tarbiya jarayonida hamda bo’sh vaqt sharoitida o’tkazishning mohiyatini ifodalaydigan, uning yo’nalishi, mazmuni hamda shakllarini belgilaydigan hayotiylik, ommaviylik, ixtiyoriylik va ilmiylik tamoyillariga asoslanishini qayd etish mumkin.

Hozirgi kunda Respublikamizda bir qancha tadbirlar yuqori daraja tashkil etilib, insonlarga estetik zavq bag’ishlab, ularning bo’sh vaqtlarini samarali tashkil

etishga hizmat qilib kelmoqda. Masalan, turli mavzularda tashkil etilayotgan tantanali kunlar madaniy-ma'rifiy ishlarning o'ziga xos shakli sifatida insonlarda milliy g'ururni saqlashga, Vatanni sevish, mehnatning qadriga yetish va boshqa ijobiy hislatlarni o'zida jo etishga undaydi. Tantanali kunlar tadbir qatnashchilarida ma'lum bir yo'nalish va mavzu bo'yicha kayfiyat kun davomida hukmronlik qiladi hamda bu kun ularning hayotlari davomida uzoq saqlanib qoladi. Kunlar o'tkazish rejasiga kirgan barcha tadbirlar mavzuga asosan tuzib chiqiladi. Tantanali kunning o'zi alohida ish shakli bo'lsada, bayramlarga o'xshab, boshqa ko'plab shakl va usullar yig'indisidan tashkil topadi.

Ko'rgazmalarni tashkil etishning ham o'ziga xos muhim jihatlari bor. Madaniyat va istirohat bog'larida o'tkaziladigan ko'rgazmalar ilmiy, texnikaviy, tibbiy, badiiy kabi ko'plab yo'nalishlar bo'yicha tashkil qilinib, yoshlar va bolalarga ta'sir qilishning ibratli va qiziqarli vositalaridan hisoblanadi.

Ushbu mavzudan ma'lum bo'lib turibdiki, O'zbekistonda madaniy tadbirlar muntazam ravishda davlat darajasida tashkil etilib, insonlarga ma'naviy ozuqa berish, ularni ma'rifat bilan qurollantirish, bo'sh vaqtlarni to'g'ri tashkil etish kabi muhim vazifalarni bajarib kelinayotganligidan dalolat bermoqda.

Yuqorida qayd etilgan tadbirlar yirik loyihalardan hisoblanib, insonlarni ma'naviy, madaniy bilimlarini oshirishga, saviyasi, dunyoqarashlarini kengaytirishga, yurtimiz muvaffaqiyatlarini jahon hamjamiyati e'tiboriga taqdim etishga qaratilgandir.

Madaniy tadbirlar nafaqat keng masshtabda, balki tor doira atrofida ham tashkil etilishi mumkin. Masalan, institut yotoqxonasida istiqomat qiluvchi qizlar bilan "Qizlar odobi bilan go'zal" mavzusida davra suhbatini tashkil etish mumkin. Ushbu bo'limda 7ta yoki ko'pi bilan 10ta talaba qiz yotoqxonada (TTJ)da istiqomat qilishi mumkin. Ammo, tadbirlarni tashkil etishda uning tor yoki keng masshtabda tashkil etilishi muhim emas. Muhimi, insonlarga o'zlari uchun kerakli ma'lumotni olishlari, tadbirdan to'g'ri xulosa chiqarishlari, vaqtini foydali mashg'ulotlarga sarf qilishlari va boshqa ijobiy, tarbiyaviy, ta'limiy jarayonlarda faol ishtiroki, ertangi kelajak uchun qayg'urishlari, Vatanni sevish, mustaqillikni

qadriga yetish, ota-onaga nisbatan mehr-muruvvatli bo'lish, ustozlarni, yon atrofdagilarga hurmatda bo'lish kabi fazilatlarni qalbiga joylashtirishdir.

Madaniy tadbirlar tasnifi va ahamiyati

Ma'lumki, madaniy-ma'rifiy faoliyatining ish shakllari xilma-xil va juda ko'p. Ular haqida to'liq va tizimli tushunchaga ega bo'lish uchun maxsus tasnif (klassifikatsiya) darkor. Ilmiy adabiyotlarda bir necha xil tasnik yoki turkumlash mavjud. Ular ichida ikkitasi haqiqatga yaqindir: birinchi xil tasniflashga madaniy-ma'rifiy ish shakllarida qatnashadigan kishilarning soni asos qilib olinadi. Ular quyidagilardan iborat: yakka (individual) guruhli va ommaviy shakllar.

- **YAKKA SHAKLLAR** - mutaxassis va tinglovchi bilan individual suhbat, u yakka amaliy mashg'ulot sifatida namoyon bo'ladi.

- **GURUHLI SHAKLLAR** – taxminan 7-30 kishi qatnashadigan tadbirlar,

ular munozara, seminar, suhbat, ekskursiya, badiiy havaskorlik kollektivlari, mashg'ulotlari kabilarni o'z ichiga oladi.

- **OMMAVIY SHAKLLAR** – katta sonli jamoaga mo'ljallangan tadbirlar:

ma'ruzalar, savol-javob kechalari, og'zaki jurnallar, mavzuli kechalar, ommaviy tomoshalar, bayramlar va hokazolardan vujudga keladi.

Bu kabi ommaviy shakllar madaniy-ma'rifiy ishlarning asosiy qismini tashkil qiladi.

Ikkinchi tasnif, madaniy-ma'rifiy ish shakllarida ta'sirchan vositalardan va usullardan foydalanish asosida vujudga keladi. Bu xil tasnif ko'proq madaniy-ma'rifiy muassasalardagi axborotga boy ma'rifiy targ'ibot-tashviqot ishlarga xosdir. Ular uchga bo'linadi: monologik, dialogik va kompleks shakllar.

1. **MONOLOGIK SHAKLLAR** deganda, notiqning asosan og'zaki – «jonli» so'zi hamda boshqa ta'sirchan vositalar orqali auditoriyaga axborotlar beradigan tadbirlar tushuniladi. Masalan: ma'ruza, axborot kabilar.

2. **DIOLOGIK SHAKLLAR** deganda, tadbirlarning muloqot, suhbat, fikr

almashishlaridan tashkil topishi tushuniladi. Unga suhbat, munozara, uchrashuv, savol-javob kechalari kiradi.

3. MAJMUA (KOMPLEKS) SHAKLLAR deganda, monologik va dialogic nutqlar ishlatishi bilan birga boshqa ta'sirchan vositalardan ham foydalanish mumkin bo'lgan tadbirlar nazarda tutiladi. Masalan: og'zaki jurnal, mavzuli kecha va boshqalar.

Madaniy tadbirlarning eng afzallik tomoni shundaki, ular madaniy muassasalarning keng qamrovli faoliyatini o'zida mujassamlashtiradi. Jumladan, ulardan ma'rifiy targ'ibot-tashviqot ishi, havaskorlik ijodi, bo'sh vaqtni mazmunli tashkil qilish kabi faoliyatlar uyg'unlashib ketadi. Tadbirlarning har bir shakliga, masalan, ommaviy bayramlar, an'anaviy marosimlar, teatrlashtirilganda ularda ma'rifiy xarakterdagi mazmuni, havaskorlik ijodining natijalarini, badiiy-estetik zavqlanish va madaniy hordiq chiqarish uchun yaratilgan qulayliklarni yaqqol sezish mumkin. Shu sababli, tadbir madaniyat-ma'rifiy muassasalardagi barcha faoliyatining umumlashtirilgan ko'zgusidir.

1.2. Madaniy tadbirlarni tashkil etishning ijodiy hamda tashkiliy jarayonlari haqida

Madaniy tadbirlarning tashkiliy jarayonlari. Madaniy tadbirlarni uyushtirishda klub, madaniyat markazlari va saroylari, madaniyat va istirohat bog'larining roli oshib borishi qishloq madaniyati hayotida yaqqol ko'zga tashlanmoqda. O'zbekistondagi ilg'or qishloq markazlari – guzarida madaniyat majmualari vujudga kelib, ular o'zlarida ko'plab tashkilot va muassasalarini birlashtirmoqda. Ular tarkibiga:

- 1) qishloq klubi (madaniyat markazi);
- 2) **madaniyat va istirohat bog'i**
- 3) **kutubxona**
- 4) **jamoalaridagi ma'naviyat xonalari**

- 5) **maktablar va bolalar bog'chalari**
- 6) **xalq muzeylari**
- 7) **maishiy xizmat ko'rsatish tashkilotlari**
- 8) **sport inshootlari**
- 9) **sog'liqni saqlash muassasalari**
- 10) **choyxona va dala shiyponlari**
- 11) **jamoat tashkilotlari**
- 12) **maishiy inshootlar va hokazolar kiradi**

Tashkilotchilik tartibni ta'minlashda o'ta muhim o'rin egallaydi. Tashkilotchilik bo'lmasa hayotda kaos, tartibsizlik, anarxiya bo'ladi. Uningsiz jamiyatni eng kichik bo'g'inidan, to eng yuqori organlarigacha: oila, jamoa, etnos, millat, mamlakat, xalqaro uyushmalar o'z ishlarini amalga oshira olmaydi. Tashkilotchilik to'g'ri yo'lga qoyilgan joyda ijtimoiy-tarixiy hayot yaxshi taraqqiy etadi. Tarixiy jarayonda tashkilotchilik an'analari keng rivoj topgan xalqlar ham yuksak sivilizatsiyaga erisha olishgan.

Tarixda ajdodlarimiz o'zining tashkilotchiligi tufayli vatanimizda eng ilg'or madaniyat yaratib, jahon sivilizatsiyasida o'zining munosib o'rnini topa olgan.

Davlat boshqaruvida xon, amir, bek, shoh, podsho va hokimlarning hamda keng xalq ommasi orasida oqsoqolm o'nboshi, yuzboshi, mingboshilarning faoliyati katta ahamiyatga ega bo'lgan.

Forobiyning fikriga ko'ra, kasblarning 'raisa'lari to'rtta bo'lib, avval dehqonchilik, ikkinchi to'quvchilik, uchinchi bannolik (binokorlik), to'rtinchisi raislik (siyosat yurituvchi, boshqaruvchi, tashkilotchi) hisoblanadi. Bundan ko'rinadiki, tashkilotchilik qadimda alohida kasb sifatida e'tirof etilgan va qadrlangan.

Bizning ajdodlarimiz ichida shunday rahbarlar (Amir Temur, Bobur kabi) tashkilotchilar bo'lganki, ular nafaqat o'z xalqi, balki butun insoniyat ravnaqi uchun o'z xissalarini qo'sha olgan.

Tarixiy tajriba bizlarni quyidagi ishlarni amalga oshirmoqqa undaydi:

- Ajdodlarimizning tashkilotchilik an'analarini chuqur o'rganish va undan ijodiy foydalanishni;

- Zamonaviy jahon yutuqlarini o'zlashtirishni;

- Tashkilotchilik ilmi va amaliyoti bilan jiddiy shug'ullanishni.

“Tashkilotchilik” arabcha “tashkilot” so'ziga ot yasovchi “chi” qo'shimchasi, so'ng esa shakl yasovchi “-lik” qo'shimchasini qo'shish bilan hosil qilingan so'zdir. “Tashkil so'zining o'zagi “shakl” bo'lib, u “tuzish”, ma'lum “bir holatga keltirish” degan ma'noni bildiradi. “Tashkilot” so'zidagi “-ot” qo'shimchasi arab tilida ko'plik otini yasaydi. Hozirgi o'zbek adabiy tilida bu so'z ijtimoiy jamoa, siyosiy birlashma, xo'jalik, birlashma, muassasa kabi so'zlarni ifodalaydi. Rus tilidagi “организация” so'zi o'zbek tiliga “tashkilot” tarzida tarjima qilingan.

Demak, “TASHKIL ETISH” – tarkibiy qismlaridan butunlik hosil etmoq, yaxlitlikni barpo qilmoq, butunlikni yuzaga keltirmoq, uyushtirmoq, tuzmoqdir. Mazkur ishlarni bajaruvchi shaxs yoki guruh “tashkilotchi” sifatida namoyon bo'ladi.

“Tashkilotchi” atamasi quyidagi ma'nolarni anglatadi:

- Tashkil qiluvchi, uyushtiruvchi, tuzuvchi;

- Harakatni boshlab beruvchi, ish, tadbir uyushtiruvchisi;

- Tashkilot, muassasa, idora, uyushma tashkil etuvchi yoki biror tashkilotni tuzib, unga boshchilik qiluvchi;

- Tarkibiy qismlardan butunlikni yuzaga keltiruvchi, kerakli g'oya, bilim, tajriba, usul, vosita, shakl va boshqa imkoniyatlardan foydalanib, yakuniy butunlik hosil qiluvchi;

- Tizim elementlarini tartibga solish va muvofiqlashtirish bilan shug'ullanuvchi boshqaruvchi.

Tashkilotchilik so'zi “tashkilotchilik madaniyati” birikmasining lug'aviy ma'nosini tushunishga yo'l ochadi.

Tashkilotchilik hayotning qaysi sohasida bo'lmasin, uni madaniyatsiz tasavvur etish qiyin. Shuning uchun tashkilotchilik va madaniyat bir-biriga juda

zarur atamalar. Biroq ularni qo'shish natijasida asosan uch atamaga duch kelamiz: "Tashkilot madaniyati", "Madaniy tashkilotchilik" va "Tashkilotchilik madaniyati". Ularning ma'nosi bir xil emas.

"Tashkilot madaniyati" deyilganda – muayyan tashkilotga mos madaniyat tushuniladi. Ijtimoiy, xo'jalik birlashmasi, davlat va jamoa muassasalari (masalan: boshlang'ich tashkiloti, ijtimoiy tashkilotlar, kasaba uyushmalari, sanoat, sog'liqni saqlash, savdo tashkilotlari va hokazolar) o'z vazifasi qanday bo'lishdan tashqari keying davrda madaniyatga alohida e'tibor berilmoqda. Yirik tashkilotlar o'z binolarining tashqi va ichki ko'rinishiga zeb berishmoqda, ish mazmuniga xos ramzlar, madaniy qiyofa, an'analar, tadbirlar, maxsus liboslar, mahsulot dizayniga ega bo'lishga intilishmoqda. Bu tashkilotlar faoliyatda madaniy qadriyatlar o'ta muhim o'rin tutayotganligidan dalolat beradi.

"Madaniy tashkilotchilik" – madaniyat sohasidagi tashkilotchilik madaniy faoliyat, tadbirlarni tashkil qilishni nazarda tutadi. Ular (qishloq xo'jaligi, chorvachilikdagi texnikadagi tadbirlardan farqli) madaniylashgan, ruhiy, badiiy-ommaviy, hordiqiy muhitda uyushtiriladi. Texnika, qishloq xo'jaligi va chorvachilik tadbiri ish jarayoning muhim qismi sifatida tashkil qilinsa, madaniy tadbirlar hayotdagi muhim hodisalarga bag'ishlanib, ko'proq aholining bo'sh vaqtida, madaniy dam olish shakli sifatida uyushtiriladi. Madaniy sohani tashkillashtirish deganda, odatlar, marosimlar, tomosholar, oyinlar, toylar, sayillar, namoyishlar, tantanali kechalar, festivallar, olimpiadalar, dekadalar, yubileylar kabi ko'plab shakllarni uyushtirish nazarda tutiladi.

"Tashkilotchilik madaniyati" deyilganda esa tashkilotchi faoliyatini uyushtirish mahorati, san'ati, jamiyatning barcha (ijtimoiy, iqtisodiy, ishlab chiqarish, savdo va hokazo) sohalarida hayotiy ehtiyoj asosida maqsadga erishish uchun kerakli vosita, usul, choralar majmuidan foydalanish madaniyati tushuniladi.

Madaniy tadbirlarni tayyorlash ijodiy jarayonlari.

Madaniy tadbirlar dramaturgiyasi (ssenariysi)

Madaniy-ommaviy tadbirlarni tayyorlash – bu ijodiy jarayon bo'lib, ikki qismdan tashkil topadi:

1. Dramaturgiya asosini (ssenariyni) yaratish.
2. Asarni postanovka qilish (rejissurani amalga oshirish).

Biroq, bu jarayonni san'at muassasalarida (teatr, kinomatografiyada) bemalol yaxlit ikki qismga bo'lish mumkin bo'lsa, madaniy-ommaviy tadbirlar tayyorlashda esa faqat shartli ravishda ikkiga bo'linadi. Chunki teatrda va kino san'atida ularning dramaturgiyasi adabiyotning muhim bir turi sifatida shakllanib, alohida asar sifatida ham keng omma tomonidan o'qilishi mumkin, madaniy-ommaviy tadbirlar dramaturgiyasi esa faqat bir maqsad uchun – amaliy tashkil qilish uchun yaratiladi, lekin alohida, keng omma tomonidan o'qilmaydi. San'at muassasalarida dramatik asar qachon yozilganidan qat'iy nazar, lozim topilganda, zamonaviy talablar javob beradigan bo'lsa, sahnalashtirish yoki ekraklashtirish mumkin. Ommaviy tadbir ssenariysi esa, belgilangan sanaga asosan yozilib bo'linganidan keyin darhol namoyish qilish uchun ishlatiladi.

Shuning uchun ham madaniy-ommaviy tadbirlar dramaturgiyasi va rejissurasi bir butun jarayondir. Aniqrog'i, bir jarayonning bir-biri bilan ajralmas ikki tomonidir. Madaniy-ommaviy tadbirlarni tayyorlashda eng muhim jarayon – uning rejalashtirilishidir. Ma'lumki, madaniyat muassasalaridagi barcha tadbirlar yillik, choraklik va oylik rejalarda o'z aksini topadi. Ularga binoan ma'lum ish boshlanadi va ohiriga yetkaziladi. Har bir tadbirni tayyorlash jarayonning umumiy rejasini madaniy muassasa qoshida ishlab turgan madaniy(yoki badiiy) kengash tuzadi va bu ishga umumiy rahbarlik qiladi.

Madaniy (badiiy) kengash o'zining (har-oyda yoki 15 kunda 1 marta bo'ladigan) yig'ilishida 2-3 oydan keyin uyushtiriladigan tadbirni tayyorlash masalalarini ko'rib chiqadi. Masalan, 9-May – Xotira va qadrlash kunida tashkil qilinadigan teatrlashtirilgan madaniy kompozitsiyasini o'tkazish madaniy kengash mart oyida ko'radi va umumiy ish jarayoning rejasini ishlab chiqadi.

9-May – Xotira va qadrlash kunida tashkil qilinadigan tadbir rejasi quyidagicha bo'lishi mumkin:

- 5-martdan – 5-aprelgacha ssenariy yaratildi.
- 7-aprelda ssenariy muhokama qilinadi.

- 9-apreldan – 4-maygacha tashkilotchi(rejissyor) tadbirni postanovka qiladi.

- 6-may tadbir ko'rigi va muhokamasi.
- 9-may soat 16:00 da tadbir namoyish qilinadi.

Madaniy (badiiy) kengash yig'ilishida oldindan belgilangan tadbir uchun javobgar shaxslar – ssenariy muallifi va rejissyor tasdiqlanadi.

Madaniy kengash tadbir tayyorlash jarayonida bu ishga uch marta o'z diqqatini jalb qiladi:

1. Tadbir o'tkazish jarayonini rejalashtirishda va javobgar shaxslarni tanlashda.
2. Ssenariyni muhokama qilishda.
3. Tadbir namoyish qilishdan oldin uni ko'rikdan o'tkazishda.

Tadbir uchun asosiy javobgar shaxslar – ssenariy muallifi va rejissyor birgalikda, umumiy reja asosida har bir kishiga taaluqli ishlarning rejalarini, ish kundaliklarini tuzadi.

Madaniy-ommaviy tadbirlar tayyorlash jarayoni haqida so'z yuritar ekanmiz, avval uning dramaturgiyasi (ssenariysiga) diqqatimizni jalb qilamiz.

Teatr san'atining asosi (pyesa) bo'lganidek, madaniy-ommaviy tadbirlar negizida ssenariy yotadi. Ssenariy – italyancha so'z bo'lib, asarning sxemasi, plani-rejasi degan tushunchani bildiradi. Madaniy-ommaviy tadbirlar ssenariysi – bu keng ma'noda hayotiy va hujjatli materiallarning badiylashtirilgan adabiy-publitsistik shakli demakdir.

Ssenariy – bu tadbirni yaratish uchun asosiy adabiy manba bo'lib, unda asarning mazmuni, kompozision tuzilishi aks ettiriladi. Shuningdek, ssenariyda tadbir o'tkaziladigan joy (zal, sahna, maydon, stadion)ning bezatilishi, qatnashchilar so'zlarining matnlari, madaniy va hujjatli materiallar, foydalaniladigan ta'sirchan vositalar bayon qilinadi.

Ssenariyning puxta bo'lishi bo'lajak tadbirning eng asosiy yutuqlaridan biridir. Bo'sh yozilishi esa, tadbirni mexanik qismlar umumlashmasiga, yagona syujetning buzilishiga, g'oyaviy mazmunning to'la yoritilmasligiga olib keladi.

Shuning uchun ham madaniy-ma'rifiy ishlar xodimi ssenariy yozishda professional mahoratga ega bo'lishi kerak.

Madaniy-ma'rifiy muassasalarida ommaviy tadbirni tayyorlash jarayoni bilan mutaxassisning bir o'zi shug'ullanadi. Bunday holatda u ham tadbir ssenariysini yozadi, ham uni postanovka qiladi. Bu murakkab jarayon bilan odatda, "ommaviy ishlar bo'yicha metodist – tashkilotchi" vazifasida ishlayotgan mutaxassislar shug'ullanishadi. Lekin, ko'pincha, katta tadbirni tayyorlashda ssenariyni yozishga adabiyot bilan shug'ullanuvchi, bu ishda yaxshi malakaga ega bo'lgan ijodkor taklif qilinadi. U metodist-tashkilotchi yordamida yoki u bilan hamkorlikda tadbirning adabiy negizini – ssenariyni yozishga kirishadi.

Ssenariy yozish bilan kim shug'ullanmasin, u quyidagi layoqatlarga ega bo'lmog'I lozim: a) ijtimoiy-siyosiy, madaniy hayotni, mahalliy aholi mehnati va turmushini chuqur tushuna oladigan hamda uni to'g'ri tahlil qila oladigan shaxs bo'lmog'I; b) adabiyotda, dramaturgiya sohasida fundamental bilimga ega, undan samarali foydalana oladigan kishi bo'lishi; v) hayotiy materiallarni, hujjatli faktlarni yig'a oladigan, ularni adabiy-badiiy shaklda bayon qila biladigan ijodkor bo'lmog'I lozim.

Eng muhimi, ssenarist hayotiy va adabiy materiallardan foydalanib, badiiyat qonuniyatlari asosida, o'z g'oyasiga, mazmuniga ega bo'lgan yangi asarni yarata oladigan ijodkor bo'lmog'i lozim.

Tadbir ssenariysi yaratuvchi shaxs asarni o'z vaqtida talabga javob beradigan qilib yakunlashi uchun butun ijodiy ish jarayonini qat'iy rejalashtirishi kerak.

Ssenariy yaratishdagi kundalik ish jarayoni quyidagicha bo'lish mumkin:

- 5-10-mart – tadbir mavzusini, g'oyasini aniqlash, ssenariy mazmunini belgilash, uning taxminiy kompozitsiyasini tuzish;
- 10-20-mart – ssenariy yaratish uchun zarur hujjatli, hayotiy va badiiy materiallar to'plash;
- 20-30-mart – ssenariyning xomaki nusxasini qog'ozga tushirish;

- 1-3-aprel – ssenariyni tugallab, muhokama qilish uchun badiiy kengash a’zolariga topshirish.

Ish boshlashdan avval bo’lajak tadbirlarning g’oyaviy-tematik asosini chuqur oylamoq lozim. Eng muhimi, ssenariy asosida muhim ijtimoiy va mahalliy aholining hayotiga yaqin bo’lgan qiziqarli mavzu yotishi kerak.

Mavzu – bu fikr-mulohaza yuritish uchun tanlangan obyekt, hayotning ma’lum masalalari, muammolari. Odatda, tadbir biron sanaga bag’ishlab uyushtirilayotganda, uning umumiy mavzusi o’z-o’zidan vujudga keladi. Masalan, 8-Mart kuni tashkil qilinadigan tadbir albatta xotin-qizlar mavzusini to’liq yoritib bo’lmaydi. Shuning uchun umumiy temani har doim konkretlashtirib, uning muhim va qiziqarli bo’lagiga diqqatni jalb qilmoq lozim. 8-Martga bag’ishlangan tadbirga konkret mavzu sifatida xotin-qizlarning o’tmishi, qahramon onalar hayoti yoki mexanizator qizlarning mehnati asos bo’lishi mumkin.

Mavzu aniqlangach, g’oya, ya’ni tadbir nima maqsadda o’tkazilayotganligi haqida oylashi lozim.

G’oya – bu tadbirda ilgari suriladigan asosiy ijtimoiy fikr, maqsaddir. Nimaga chorlash, nima uchun kurashga chaqirish, maqsadning nimaligi g’oyada ifodalanadi. G’oya tadbirning oxiridagina oydinlashishi kerak. Shunga erishish lozimki, tadbir davomida tomoshabinlar ijtimoiy g’oya haqida, uning asosiy fikri haqida oylasin, unga qizishi orsin. Amalda esa ko’pgina tashkilotchilar g’oyani tayyor ko’rinishda, tadbirning boshlanishidanoq aytib qoyishadi. Bu esa tomoshabinning tadbirga bo’lgan qiziqishini kamaytiradi, tadbir qimmatini pasayadi. Mavzu va g’oya aniqlangandan keyingina ssenariy plani tuziladi. Ssenariy plani esa tadbir mavzui va g’oyasi asosida vujudga kelgan mazmun tarzida shakllanadi.

Mazmun – bu asarning umumiy ma’nosi, mag’zi. Tadbir mazmunning voqealar zanjiri, u voqea harakatlarida rivojlanadi. Masalan, “Shonli yillar” nomli xronika kechasi mazmunida mustaqillikning birinchi kunidan hozirgi davrgacha bo’lgan voqealar yoritilishi mumkin. Agar biz tadbirda mamlakatimizda bo’lgan hamma voqealarga to’xtaladigan bo’lsak, unda juda ko’p vaqt talab etiladi. Shuning uchun diqqatni eng muhim voqealarga jalb qilib, ularni yoritish lozim.

Har bir tarixiy voqeani tadbirning bir epizodida aks ettirish mumkin. Epizodlardan tuzilgan voqealarni esa yagona mazmun “zanjir”ga bog’lash kerak. Har qanday madaniy asar mazmunining mag’zi bo’lib xizmat qilgan yutuqlar bilan birga qiyinchiliklarni ham tadbirda chetlab o’tib bo’lmaydi.

Har doim ham konflikt (qarama-qarshilik) asosida antogonistik kuchlar to’qnashuvi yotadi, deb oylash to’g’ri bo’lavermaydi. Qarama-qarshiliklar ba’zan murakkab mehnat faoliyatida, u yoki bu maqsad yo’lidagi qiyinchiliklarda ham paydo bo’lishi va o’sishi mumkin. Ko’pgina kechalarda qarama-qarshiliklar xalqimizning ijtimoiy hayotini yaxshilash borasidagi kurashda, qiyinchiliklar, kamchiliklarga qarshi kurashda o’z aksini topadi. Mazmun va konflikt aniq tanlangandan keyingina ssenariy materiallarni to’plashga kirishish kerak.

Ssenariy temasida respublika ahamiyatga molik muhim voqealar, hujjatli materiallar bilan birga hayotdan olingan faktlardan foydalanish talab etiladi. Tadbirlarning asosini davrning muhim muommoli masalalar, mahalliy faktlar tashkil etishi va u mehnatkashlarning bilim doiralarini, dunyoqarashini kengaytirishga xizmat qilmog’i kerak.

Bugungi tajriba shuni ko’rsatadiki, mahalliy materiallar foydalanib, muayyan jamoaning hayoti, ularning mehnat yutuqlari, madaniyat, sport sohasidagi faoliyatlarini yorita olgan tadbirlargagina qiziqish kuchli. Shuning uchun ssenarist mahalliy joining turmush sharoitlarini, aholining urf-odatlarini hada tadbirga keluvchilarning xarakterini yaxshi bilishi lozim.

Ssenariyda maxsus hujjatlardan: buyruqlar, nizomlar, xatlar, kundaliklar, shaxsiy, oilaviy albomlardan, fotohujjatlar, davlat va shaxsiy arxiv materiallaridan foydalanish mumkin. Bu yerda yana ssenariyda yoritilayotgan voqealarga aloqador yozib olingan yutuqlar yoki tarixiy voqealar qatnashchilarining xotiralari ham muhim rol oynaydi.

Kompozitsiya – bu asar qismlarning tuzilishi, mantiqiy joylanishi va ularning o’zaro bog’lanishi.

Tadbir kompozitsiyasi – dramaturgiya qonuniyatlari asosida asar voqealarini bir-biri bilan bog’lovchi harakatlar tuzilishidir. Teatrlashtirilgan

tadbirlarning kompozitsion tuzilishi muqaddima, tugun, asosiy harakat, voqealar rivoji, kulminatsiya, yechim kabi komponentlarni o'z ichiga oladi.

Muqaddima – asarning boshlanish qismi, dastlabki tushuntirish beradigan debochasi, tadbirning kirish qismi, asosiy voqealarga olib boradigan ko'prik. U yuqori emotsional kayfiyatda o'tib, tomoshabin diqqatini tadbirga yig'adi. Muqaddimada ta'sirchan she'rlar, filmdan parchalar, musiqa asarlari, ba'zi hollarda hujjatli materiallar, yozib olingan ovozlardan tashkil topishi mumkin. Muqaddima tadbir boshlanishi bilan faqatgina sahnada emas, balki teatrlashtirilgan ko'rinishda bino foyesida yoki kirish yo'lakchasida boshlanishi mumkin. Hozirgi zamon mehnat qahramonlariga bag'ishlangan ba'zi bir portret kechalarida muqaddima quyidagicha bo'ladi. Musiqachilar sahnaga ikki tomondan chiqib keladi. Bu paytda kirish yo'lakchasidan tadbir qahramonlari ko'rinadi. Zal ularni tantanali kutib oladi. Ular sahnaga ko'tariladilar. Milliy libosdagi qizlar ularga gullar taqdim etadilar.

Muqaddima tomoshabin diqqatini asosiy harakatlarni bo'layotgan joyga qaratadi. Muqaddima ramziy-badiiy shaklda o'tsa, u yanada ta'sirchan bo'ladi.

Tugun – asarda voqeaning rivojlanishiga sabab bo'lgan voqea-hodisa, ya'ni tadbir xarakterining boshlanishi, tomoshabinning bevosita fikri va his-tuyg'usining ma'lum bir jumboqqa qaratilishi.

Final – asarning yakuni, oxiri eng muhim qismi. (Finalni ba'zi hollarda “yechim” yoki “epilog” deb ham atashadi.).

Yechimning yaxshi tugallanmasligi tomoshabin his-tuyg'ularining susayishiga, asar qimmatining pasayishiga olib keladi. Yechim ba'zi hollarda butun ijrochilarning sahnaga ommaviy chiqishlarida, jamoa bo'lib qo'shiq aytishlarida, birgalikda murojaatnoma qabul qilishlarida namoyon bo'ladi.

Shunday qilib, biz madaniy-ommaviy tadbirlar ssenariysini yaratilish jarayonining umumiy qonun-qoidalariga to'xtalib o'tdik. Lekin shuni unutmaslik kerakki, ssenariy har doim ma'lum bir sanaga bag'ishlanib, muayyan aholi, konkret auditoriya, asosan bir marotaba tashkil qilish uchun yoziladi. Shu sababli unda mahalliy xususiyatlar, tadbir o'tkaziladigan joy imkoniyatlari, moddiy va

texnik vositalar mavjudligi, tashkilotchilar va havaskorlar ijodiy kuchi, shuningdek, aholining ehtiyoji va qiziqishlari hisobga olinishi shart.

Madaniy-ommaviy tadbirlar rejissurasi. “Rejissyor” tushunchasi fransuzcha soʻzdan olingan boʻlib, boshqaruvchi degan maʼnoni bildiradi. Shuni taʼkidlash kerakki, “rejissyor” soʻzi Oʻzbekistonga XIX asr oxiri – XX asr boshlarida paydo boʻlgan. Lekin bu bilan qadimiy oʻzbek xalq tomoshalari va bayramlarini tashkilotchisi, yaʼni rejissyori boʻlmagan, deyish xato boʻlur edi. Oʻzbek madaniyatiga “rejissyor” tushunchasi kirib kelgunga qadar “korfarmon” degan soʻz ishlatilgan.

“Korfarmon” soʻzining maʼnosi ishga farmon beruvchi, yaʼni ishboshi, demakdir. Darhaqiqat, “korfarmon” – oʻziga xos ishboshi - administrator, rejissyor, muallim, oyin boshidir – deb yozadi professor Muhsin Qodirov.

Bugungi kunda rejissyor tushunchasi barcha xalqlar madaniyatida ishlatilganidek, oʻzbek sanʼatida ham keng qoʻllanmoqda. Hozirgi paytgacha rejissyor deganda koʻproq, teatr va kino sanʼatida madaniy asarni sahnalashtiruvchi, ekranlashtiruvchi ijodkor tushuniladi. Keyingi vaqtlarda, radio va televideniya rejissyor mutaxassisligi bilan bir qatorda madaniy-maʼrifiy muassasalarida ham ommaviy tadbirlarni tashkil qiluvchi rejissyor shakllanmoqda. Madaniy-ommaviy tadbirlar rejissyori deganda, muhim sana va voqealarga bagʻishlab yozilgan ssenariyni mahalliy sharoitda madaniy-hujjatli qonuniyatlar asosida, maxsus ish shakllarida amaliy uyushtiradigan ijodkor tushuniladi.

Ommaviy tadbir rejissyori real hayotning muhim, diqqatga sazovor daqiqalarini madaniylashtiradi, badiiy bezaydi va maxsus tadbir sifatida shakllantiradi. Qaysi sanʼat turi bilan shugʻullanishdan qatʼi nazar, rejissyorlarning hammasiga xos boʻlgan umumiy xususiyatlar mavjud. Rejissyorlarning ijodi ularning yuksak insoniy, madaniy, axloqiy xususiyatlariga hamda dunyoqarashi, bilimi va professional qobiliyatlariga bogʻliqdir. Rejissyorlar umumiy fazilatlariga ega boʻlishi bilan birgalikda, shugʻullanayotgan sohalari talab qilgan xususiyatlarga va layoqatlarga ham ega boʻlmogʻi lozim. Bu har bir sohaning (teatr, kino, televideniya) rejissurasining xususiyatlaridan kelib chiqadi. Jumladan,

madaniy-ommaviy tadbirlar rejissurasining ham xuddi teatr, kin ova televideniye rejissurasidek o'ziga xos xususiyatlari mavjud.

V.I.Nemirovich-Danchenko rejissyorlarning quyidagi fazilatlarga ega bo'lishini ta'kidlagan edi:

1. Rejissyor (tolkovatel) – tushuntiruvchi, asarning g'oyasini, maqsadini, madaniy obrazning talqinini to'g'ri va mantiqli tushuntirishni bilishi kerak.

2. Rejissyor (zerkalo) – oyna, aktyorlarning individual xususiyatlarini, ijodini to'g'ri aks ettirishni bilmog'I kerak.

3. Rejissyor (organizator) – tashkilotchi, butun spektaklni uyushtirishi kerak.

Albatta, Nemirovich-Danchenko ta'riflagan bu fazilatlar, asosan, teatr rejissyorlariga mansubdir. Shunga qaramay, ular ommaviy tadbirlar rejissyoriga ham tegishli, bunda o'ziga xos tartib va xususiyat bilan namoyon bo'ladi.

Madaniy-ommaviy tadbirlarning mohiyatidan va xususiyatlaridan kelib chiqilganda, ularning rejissyori tashkilotchi (jumladan, administrator ham), shu bilan birga, bosh ijodkor va qonuniy ravishda pedagog bo'lmog'I lozim.

Rejissyor – tashkilotchi. Madaniy – ma'rifiy xodimda tashkilotchilik layoqati bo'lmasa, undan yaxshi mutaxassis chiqishi qiyin. Agar ommaviy ishlar rejissyorida tashkilotchilik qobiliyati bo'lmasa, hech qachon yaxshi tomosha, ya'ni tadbir uyushtira olmaydi. Ommaviy tadbirlar rejissyori uchun tashkilotchilik qobiliyati eng asosiy fazilat hisoblanadi. Chunki u san'at muassasalarining professional rejissyorlarga qaraganda murakkab sharoitda, maxsus malakaga ega bo'lmagan havaskorlar bilan ish olib boradi.

Madaniy-ommaviy tadbirlar rejissyoridagi tashkilotchilik qobiliyatining administrativlik va boshqaruvchilikdan iborat ikki tomoni kuchli namoyon bo'lishi kerak.

Rejissyor tadbirning tashkilotchi – administrator sifatida juda ko'p ishlarni bajaradi. Agar professional teatr, kinostudiya, televideniye va radioda administrative (ma'muriy) ishlarni maxsus tayinlangan kishilar olib borishsa,

madaniy-ma'rifiy muassasalarda esa ommaviy tadbir rejissyori ular bajaradigan fazilatlarni o'z zimmasiga oladi.

San'at muassasalarida mavjud bo'lgan maxsus professional ijodiy guruh, maxsus madaniy va texnik vositalar, fonotekalar, ovoz yozish va nurli apparatlarga ega sexlar, butafor, rekvizit, kostyumerlar, dekorosiya tayyorlanadigan ustaxonalarga klub va parklar ega bo'lmaydi.

Ommaviy tadbirlar rejissyori vujudga kelishi mumkin bo'lgan barcha muammolarni yechish uchun yo'l-yo'riq topa bilishi kerak. U lozim bo'lsa, havaskorlar tadbirda qatnashishi uchun barcha sharoitni tayyorlashi, texnik apparatlarni axtarishi, badiiy ustaxonalar bilan shartnoma tuzib dekoratsiya, butaforiyani hozirlashi, kostyumlarni topishi va ko'plab shunga o'xshash ishlarni amalga oshirishi lozim. Albatta bunday sharoitda tadbirni tayyorlash va mavjud muammolarni bartaraf qilish uchun rejissyorda administrative qobiliyat nihoyatda kuchli bo'lmog'I lozim. Aks holda, tadbir tashkilotchisi yaxshi natijalarga erisha olmaydi.

Tadbir tayyorlash jarayonida rejissyorning boshqaruvchilik layoqati alohida o'ringa ega. Chunki tadbir odamlarning ishtiroki bilan vujudga keladi va odamlar uchun tayyorlanadi. Agar rassom boyoq, xolst (mato) va polotno bilan, arxitektor har xil granit toshlar va cho'kich bilan, yozuvchi so'zlar bilan, kompozitor ohang va notalar bilan ijod qilsa, tadbir rejissyorni kishilar bilan va ularning yordamida madaniy tomoshaviy shakl yaratadi.

1.3. Madaniy tadbirlar –tarbiya vositasi sifatida.

Komil inson, barkamol avlod tarbiyasida madaniy tadbirlarning roli benihoyadir. Madaniy tadbirlar haqida umumiy tushunchalar, uni tashkil etish, sahnalashtirish ishlari, unga ijodiy yoki pedagogik nuqtai nazardan yondoshish, uning inson tarbiyasida tutgan roli va boshqa masalalar juda ko'p tadqiqotchilarni o'ziga tortgan. Ammo, bir narsani eslatib o'tish joizki, sobiq ittifoq davrida yozilgan bir qancha manbalardan boshqa bu soha, ya'ni madaniy tadbirlarga oid

bo'lgan o'zbek tilidagi manbalar juda kam. Professor U.Qoraboyevning "Madaniy tadbirlar", "Badiiy ommaviy tadbirlar" kitobida bu mavzularga oid ma'lumotlarni topish mumkin. Oliy ta'lim uchun aynan madaniy tadbirlar to'g'risida manba yo'q. Ammo, madaniy tadbirlarning asl mohiyatini, tadbirlarning genezisi haqidagi ma'lumotlarni B.Sayfullayev tomonidan yaratilgan "Tomosha san'ati tarixi va nazariyasi (T., 2014),⁷ M.Umarovning "Estrada va ommaviy tomoshalar tarixi" (T., "Yangi asr avlodi", 2009),⁸ tadbirlar dramaturgiyasi bo'yicha H. Muhammadning "Ssenariynavislik asoslari" (T., Fan va texnologiya, 2008), sahnalashtirishga oid manbalarni esa B.Sayfullayev hamda J. Mamatqosimovlar hammuallifligida yaratilgan "Aktyorlik mahorati"(T. Fan va texnologiya, 2012)⁹ kabi qo'llanmalardan ¹⁰topish mumkin.

Mazkur modul madaniy tadbirlarni tashkil etishning o'ziga xosligi, mamlakatimizda yangicha munosabatlarning taraqqiyoti, tadbirlarni tashkil etishni turli usul va ko'rinishlari, tashkil etilayotgan madaniy tadbirlarning inson tafakkuriga ta'siri va jamiyat taraqqiyotiga hissa qo'shishdagi ahamiyatini tahlil etish asnosida vujudga kelgan.

Fuqarolarni ma'naviy kamol toptirish, kishilarning bo'sh vaqtini sermazmun o'tkazish, ma'naviy boyitish, aholini madaniy, ma'rifiy, ijodiy, hordiqiy faoliyatlari uchun shart-sharoitlar, imkoniyat va qulayliklar yaratish, joylarda xalq madaniyatini taraqqiy ettirish va rivojlantirish kabi maqsad va vazifalarni o'zida qamrab oladigan madaniy tadbirlarni tashkil etish masalalari mazkur mavzuda joy olgan.

Dunyodagi mafkuraviy tortishuvlar va uchrayotgan informatsion xurujlar o'sib kelayotgan yosh avlodning tarbiyasiga yangi talablarni qo'ymoqda. Shaxs dunyoqarashining tizimida sog'lom e'tiqod, ishonch va milliy qadriyatlar

⁷ Sayfullayev B. "Tomosha san'ati tarixi va nazariyasi T.:, 2014 y.

⁸ Umarov M. "Estrada va ommaviy tomoshalar tarixi" "Yangi asr avlodi", T.:, 2009 y.

⁹ Sayfullayev B. va Mamatqosimov J. "Aktyorlik mahorati" T.: Fan va texnologiya, 2012 y.

¹⁰ Muhammad H. "Ssenariynavislik asoslari". Fan va texnologiya, - T.:, 2008 y.

tizimining ustuvorligi yot mafkuralarga qarshi immunitetni tarbiyalashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. ¹¹

1992-yil 2-iyulda O‘zbekiston Respublikasida “Bayram kunlari haqida”gi Qonun qabul qilingan.

1-yanvar-Yangi yil bayrami.

14-yanvar-Vatan himoyachilari kuni.

9-fevral-Alisher Navoiy tavallud topgan kun.

14-fevral-Zahiriddin Muhammad Bobur tug‘ilgan kun.

8-mart-Xalqaro xotin-qizlar kuni.

21-mart-Navro‘z umumxalq bayrami.

9-aprel-Sohibqiron Amir Temur tavallud topgan kun.

15-may-Xalqaro oila kuni.

18-may-Xalqaro muzeylar kuni.

1-iyun-Xalqaro bolalarni himoya qilish kuni.

5-iyun-Xalqaro ekologiya kuni.

2-iyul-Respublika davlat gerbi qabul qilingan kun.

1-sentabr-Mustaqillik kuni.

4-sentabr-Abu Rayhon Beruniy tug‘ilgan kun.

8-sentabr-Xalqaro savodxonlik kuni.

1-oktabr-O‘qituvchi va murabbiylar kuni.

21-oktabr-O‘zbek tiliga Davlat tili maqomi berildi.

10-noyabr-Xalqaro yoshlar kuni.

17-noyabr-Xalqaro talabalar kuni.

18-noyabr-O‘zbekiston Davlat bayrog‘i qabul qilingan kun.

3-dekabr-Xalqaro nogironlar kuni.

8-dekabr-O‘zbekiston Konstitusiyasi kuni.

10-dekabr-O‘zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi qabul qilingan kun.¹²

¹¹ Siddiqova M. “Bugungi kunda yoshlar tarbiyasining ahamiyati” maqolasi. “Ilm-fan va ta’lim intergratsiyasi” Respublika ilmiy-uslubiy maqolalar to‘plami, T.: “Lesson PRESS”, 2016 y. 109-b.

II BOB. BAYRAMLAR MADANIY TADBIRLARINING OLIY SHAKLI

2.1 Madaniy tadbirlarni tashkil etishning metodologik (uslubiy) asoslari

Madaniy tadbirlarni - eng avvalo, insonlar uchun tashkil etiladigan, ularning bo'sh vaqtlarini to'ldiradigan, ijodiy, estetik qarashlarini shakllantiradigan, madaniy bilimlarini boyitadigan jarayon deb tushunish mumkin. Insonlar ishdan bo'sh paytlarida madaniy ehtiyojlarini qondirishlari maqsadida turli ijodiy, ko'ngilochar, san'at vositalari ishtirok etgan jarayonlarda qatnashishni hohlaydilar. Shaxar sharoitida teatrlar, turli konsert dasturlari, bog'lar, madaniyat saroylari va boshqa dam olish maskanlariga borib, o'zlarining madaniy ehtiyojlarini qondirishga harakat qiladilar. Qishloq sharoitlarida esa bunday imkoniyatlarni madaniyat uylari, klublar, bog'larda amalga oshirish mumkin bo'ladi. Har qanday sharoitda ham mohirona tashkil etilgan tadbirlar insonlarga ozmi-ko'pmi o'zi istagan "ne'matlar"ga ega bo'lish imkonini beradi.

Xo'sh, shunday ekan, madaniy tadbir degan tushunchaga qanday izoh bersak maqsadga muvofiq bo'ladi?

O'zbek tilining izohli lug'atida "**tadbir**" - biron ishni, maqsadni amalga oshirish, ro'yobga chiqarish vositasi – shuning uchun puxta o'ylab tuzilgan, ishlab chiqilgan amaliy choralar majmuidir, deyilgan. Madaniy tadbirlar to'g'risida shu soha olimlari turli fikr mulohazalarni aytib o'tganlar. U.Qoraboyev bu tushunchani badiiy ommaviy tadbirlar deb, yana boshqalar madaniy-ma'rifiy ishlar deb yuritganlar. Madaniy tadbirlar esa bu jarayonlarning barchasini o'zida qamrab oladigan ijodiy jarayondir. Madaniy tadbirlarni kengroq ma'noda qo'llash maqsadga muvofiqdir. Ommaviy bayramlar, konsert dasturlari, tematik kechalar,

¹² Hasanov A. "Bilim: ezgulik va taraqqiyotga yo'l", T.: Turon zamin ziyo, 2015 y. 52-b.

turli mavzudagi musiqiy, badiiy, publitsistik, xoreografik kompozitsiya va h.k.lar, bog'lar, maydonlarda o'tkaziladigan turli janrlardagi tadbirlar umumiy nom bilan madaniy tadbir tushunchasiga teng bo'ladi. Bir so'z bilan aytganda ijodiy, uslubiy jihatdan mukammal, puxta tayyorlangan, to'g'ri tashkil etilgan dasturlar madaniy tadbir deb nomlanadi.

Har qanday madaniy tadbir ijodiy va tashkiliy jarayonlarni o'z ichiga oldi. Ijodiy ishlarga tadbirning ssenariy rejasini tuzish, ssenariysini yozish, sahnalashtirish, badiiy jamoalar bilan ishlash, tadbir o'tadigan joyni bezash kabi ishlar kirsam, tashkiliy ishlarga esa ana shu ijodiy ishlarni amalga oshirish uchun qilinadigan barcha ishlar kiradi. Masalan, badiiy jamoalar bilan ishlash uchun mikrofonlar, texnik jihozlarni tayyorlash kabi vazifalar shular jumlasidandir.

Madaniy tadbirlar aholini ma'naviy kamol toptirish, madaniy saviyasini oshirish, bilimni o'stirish, dunyoqarashini kengaytirish, ijodiy qobiliyatini rivojlantirish, bo'sh vaqtini samarali o'tkazishga qaratilgan ijodiy, tashkiliy jarayondir.

Madaniy tadbirning tashkilotchi-rahbari avvalo, o'z oldiga maqsad va vazifalarni to'g'ri qo'yishi zarur. Tadbirni tashkil etish vazifasini olishi bilan rahbar ishni nimadan boshlaydi?

Tadbirni to'g'ri tashkil etishda turli uslub va vositalarning to'g'ri tanlanishi katta ahamiyat kasb etadi.

Madaniyat va san'at muassasalari - fuqorolarni ma'naviy kamol toptirish, kishilarning bo'sh vaqtini sarmazmun o'tkazish, ma'naviy boyitish, aholini madaniy, ma'rifiy, ijodiy, hordiqiy faoliyatlari uchun shart-sharoitlar, imkoniyat va qulayliklar yaratish, joylarda xalq madaniyatini taraqqiy ettirish va rivojlantirish kabi maqsad va vazifalarni o'zida qamrab oladi.

Ko'zlangan maqsadga erishish uchun bajariladigan har bir ish jarayoni, jumladan, madaniy tadbirlarni tayyorlash jarayoni ham, kerakli va ma'lum yo'l-yo'riqlarni, usul-uslublarni yoki metodlarni qo'llashni talab qilladi. Belgilangan tadbirni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun qanchalik samarali metodlar topilsa,

uni amalga oshirish jarayoni shunchalik oson bo'ladi. Shuning uchun madaniy tadbirlar tashkilotchisi metodlar haqidagi ta'limotni bilishi, ularni tanlashni va foydalanish yo'llarini mukammal o'zlashtimog'i kerak.

Metod grekcha «metodos» so'zidan olingan bo'lib, «bayon qilish», «bajarish usuli» degan ma'noni bildiradi. «Metod» so'zining zamonaviy ma'nosi ma'lum faoliyatda maqsadga erishish uchun topilgan, bajarilayotgan va amalga oshirilayotgan usul, yo'l-yo'riq demakdir. Madaniy tadbirlar ko'p qirrali faoliyat bo'lgani uchun, unda juda ko'plab metodlardan foydalaniladi.

Madaniy tadbirlar – bu tarbiyaviy, ma'rifiy, ijodiy va dam olish ishlarining o'ziga xos birlashuvi natijasida vujudga keladi. Shu sababli ularda, eng avvalo, pedagogikadagi tarbiyaviy ishlarga oid bo'lgan va ma'rifiy (bilim berish, axborot tarqatish) faoliyatga mansub metodlarga murojaat qilmaslikning iloji yo'q. Shuningdek, ularda dam olish (hordiq chiqarish) va ijodiy jarayonni tashkil qilish metodlaridan foydalanilmasa, tadbirlardagi asosiy vazifalarning ba'zilar yo'qolib ketadi.

U.Qoraboyev o'zining “Badiiy ommaviy tadbirlar” kitobida ushbu soha bo'yicha ish olib borishda quyidagi metodlardan, ya'ni, tarbiyaviy, ta'limiy, xordiq chiqarish va ijodiy jarayonni tashkil qilish, tashkiliy metodlardan foydalanish maqsadga muvofiqligini aytib o'tadi¹³. Ish jarayonida bu metodlar bir-birini to'ldirib, o'zaro bog'lanib ketadi.

Xozirgi kunda olib borilayotgan, tashkil etilayotgan barcha jarayonlar ta'lim va tarbiya asosiga qurilgan desak, mubolag'a bo'lmaydi.

Prezidentimiz tomonidan ishlab chiqarilayotgan dasturlarimizning asosini ham mana shu ikki jarayon asosida tuzilgan deyishimiz mumkin. Sababi, yoshlar tarbiyasi, ma'naviyat masalalari, ta'lim berish kabi vazifalar davlatimiz tomonidan ishlab chiqilayotgan qaror, farmon va farmoyishlarida o'z aksini topganligi barchamizga ayon. Shu bois, ta'lim va tarbiya masalalari davlatimiz siyosatining ustivor vazifalaridan ekanligini barchamiz to'g'ri anglashimiz zarur.

¹³ U.Qoraboyev, “Badiiy ommaviy tadbirlar”, O'qituvchi nashr., 1986y, 59b.

Muhtaram Birinchi Prezidentimiz “Ma’naviyatni shakllantirishga bevosita ta’sir qiladigan muhim hayotiy omil –bu ta’lim –tarbiya tizimi bilan chambarchas bog‘liqdir”, deb aytganlari aynan mana shu sohaning vazifalarnini to‘g‘ri anglashga undaydi.¹⁴ . Shu jihatdan ham tarbiya masalasi barcha masalalardan yuqori turishliklarini anglash qiyin emas. “Ta’limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta’limdan ajratib bo‘lmaydi –bu sharqona qarash, sharqona hayot falsafasidir. Bu haqda fikr yuritganda, men Abdulla Avloniyning “Tarbiya biz uchun yo hayot –yo mamot, yo najot –yo halokat, yo saodat – falokat masalasidir” degan chuqur ma’noli so‘zlarni eslayman”¹⁵, degan so‘zlari ta’lim va tarbiya sohasining o‘ta muhimligini yana bir bor ta’kidlaydi. Madaniy tadbirlarlarni tashkil etishdan asosiy maqsad ham insonlarga to‘g‘ri tarbiya berishdir. Madaniy tadbirlar- bu, eng avvalo, tarbiyaviy jarayon bo‘lgani uchun ularda pedagogikaga oid tarbiyaviy metodlardan foydalanish qonuniydir. Lekin bu ularni to‘g‘ridan-to‘g‘ri , ko‘r-ko‘rona qo‘llash, degan gap emas.

Ishontirish metodining asosiy vazifasi auditoriyaga ta’sir ko‘rsatishdir. Buning uchun tadbirning mazmunini ishonarli, haqqoniy qilib tuzish kerak. Omma tashkilotchilarning fikriga qo‘shila olmasa, berilgan ma’lumotlarga ishonmasa, u holda tadbirning maqsadi amalga oshmaydi. Bunga yo‘l qoymaslik uchun tadbirda hujjatlar, faktlar, ilmiy tadqiqot ishlarining natijalari, siyosiy arboblarning va olimlarning fikrlari hamda statistik ma’lumotlardan foydalanish kerak. Ular haqqoniy, mantiqli, ishonarli va qiziqarli shaklda aks ettirilmog‘i kerak. Misol uchun, odam savdosiga qarshi kurash mavzusi asosida tayyorlangan “Adashgan yo‘llar” kompozitsiyasini (V.Rustamov tomonidan sahnalashtirilgan va 2011 yil TDMI anjumanlar saroyida namoyish etilgan) tayyorlashdan asosiy maqsad u yerlarga, ya’ni o‘zga yurtlarga borib, ko‘p pul topishni istagan yoshlarga buning hammasi safsata ekanligiga ishontirish, u yerdagi shart-sharoit va ahvolning naqadar ayanchli ekanligini ko‘rsatish, o‘z yurtining qadriga yetish kabi vazifalarni

¹⁴I.A.Karimov.“Yuksak ma’naviyat –yengilmas kuch” T, 2008, 60b.

¹⁵ I.A.Karimov.“Yuksak ma’naviyat –yengilmas kuch” T, 2008, 62b.

qo‘ygan holda tomoshabinlar e‘tiboriga havola etilishi ko‘pchilikning to‘g‘ri hulosa chiqarishiga sabab bo‘la oldi deyishimiz mumkin. Shu birgina odam savdosiga qarshi kurash mavzusi atrofida kechadigan tadbirlarni bir necha xil variantlarda tashkil etish mumkin (inssenirovka qilish, xujjatlarni badiiylashtirish, aniq faktlar asosidagi ma‘lumotlar asosida kompozitsiyalar tayyorlash va h.k.z.) .

Yuqorida qayd etib o‘tganimizdek, U.Qoraboyev namuna metodi haqida ham o‘z fikr mulohazalarini bayon etib o‘tadi. Hozirgi kunda bu metod asosini “Zamonaviy qahramon obrazini yaratish” masalalaridan kelib chiqqan holda yondoshish maqsadga muvofiqdir. Namuna metodi orqali kishilarining eng yaxshi fazilatlari tarannum etiladi. Vatanimizning eng yaxshi o‘g‘lonlarini va mahalliy sharoitda samarali ish ko‘rsatayotgan mehnat ilg‘orlarining hayoti va faoliyatini boshqalarga namuna qilib ko‘rsatish madaniy tadbirimizning tarbiyaviy qiymatini oshirib, ommani ulardan o‘rnak olishga, halol ishlashga undaydi. Ular mehnatini munosib taqdirlash ham tadbirda foydalanish mumkin bo‘lgan usullardan hisoblanda.

Taqdirlash (rag‘bat) usuli ham insonlarni mehnatini qadriga yetayotganliklarini, moddiy va ma‘naviy jihatdan qo‘llanayotganliklarini va buning asnosida yanada ter to‘kib halol mehnat qilishga, qilayotgan mehnati natijasiz qolmasliklarini, Vataniga foydasiga tegayotganligi va qilayotgan mehnatining samarasi, natijasi o‘zi uchun, qolaversa, jamiyat taraqqiyoti uchun ekanligi anglashga undaydi. Undan tashqari, taqdirlash usulining yana bitta afzalligi shundaki, uning atrofida mehnat qilayotganlar ham shu e‘tiborlarga erishishga intilib mehnat qiladilar.

Ma‘rifiy metodlar ham madaniy tadbirlarning asosini tashkil etadi, desak yanglishmaymiz. Chunki, madaniy tadbirlarning asosiy vazifalaridan biri ommaga yangi axborot va bilim berishdan iboratdir. Bu jarayonda ham pedagogikadagi ma‘rifiy metodlardan ijodiy foydalanish katta samara beradi. Professor M.Bekmurodov o‘zining rahbarlik pozitsiyasida bitta g‘oyani ilgari suradi. Barcha pedagoglar, madaniyat targ‘ibotchilari ilmi, bilimli va ma‘rifatli bo‘lishlari lozimdir, deydi. Buning uchun nima qilish kerak? M.Bekmurodov o‘zi rahbarlik

qilayotgan kafedra professor-o'qituvchilarini kitob o'qish majburiyatini qo'yib, ularga aniq muddat berib, savol-javob kechalarni o'tkazish orqali ma'rifatli qilish yo'lidan bordilar. Buning natijasi pedagog kitobni yuzaki emas, kitobning ichiga kirib o'qishga, uning mazmuni va mohiyatini anglab olishga undaydi. Mana shunday usullarni joylarda qo'llash albatta katta samaralar beradi.

Tadbirlarda keng qo'llanishi mumkin bo'lgan ma'rifiy metodlar – bu bayon etish va namoyish qilishdir. Bayon etish metodining asosiy maqsadi shundan iboratki, u tadbirning g'oyasi, mazmuni, axborot va faktlarini auditoriyaga jonli so'z orqali bayon qilish shaklida yetkazib beradi. Ommaviy tadbirlar tarkibida ko'pincha shunday faktlar va ma'lumotlar bo'ladiki, ular albatta batafsil tushuntirishni talab qiladi. Xuddi shunday daqiqalarda bayon etish metodi katta yordam beradi. Bu metod yordamida ma'lumotlarning mohiyati ochiladi, xususiyatlari yoritiladi va to'liq bilim beriladi. Bayon qilish metodi, ayniqsa, og'zaki jurnallarda, tematik kechalarda ko'proq qo'llaniladi.

Bugungi kunda texnika taraqqiyoti jadal rivojlanayotgan bir paytda namoyish qilishning turli usullarini qo'llash unchalik katta qiyinchilik tug'dirmaydi. Bu usulning yaqqol misoli sifatida J.Mamatqosimov tomonidan sahnalashtirilgan “Qordagi qizg'aldoq” deb nomlangan badiiy-publitsistik kompozitsiyani aytish mumkin. Slaydda tayyorlangan qatag'onlar hayotiga oid xujjatlar asosida tayyorlangan tasvirlar aktyorlar ijrosi bilan uyg'unlashib ketadi va yagona kompozitsiyaga ega bo'ladi. Namoyish qilish metodi tadbir mazmunidagi voqealarning obrazli tasvirini ko'rgazmali shaklda auditoriyaga yetkazishga yordam beradi. Bunda barcha ma'lumotlar obrazli kuzatish (ko'rish) orqali qabul qilinadi. Namoyish qilish metodi, asosan, ta'sirchan vositalar orqali bajarilib, unda voqealar yoki kecha qahramonlarining hayotiga oid ma'lumotlar hujjatli, real aks ettiriladi. Masalan, portret kechasida ma'lum kishining hayoti va mehnati suratlar, filmlar, hujjatlar orqali ko'rgazmali namoyish qilinadi. Bu esa berilgan ma'lumotlarni emotsional-obrazli idrok etishga yordam beradi va ular haqidagi taassurotlarni uzoq vaqt esda saqlab qolishga imkon beradi.

Hammamizga ma'lumki, madaniy tadbirlar kishilarning ishdan bo'sh, dam olish vaqtida ijodiy jarayonga qo'shilishi natijasida vujudga keladi. Eng avvalo, havaskorlar o'zlarining ishdan bo'sh vaqtlarida ijodiy jarayonga tadbir tayyorlashadi va buning natijasida keng ommani hordiq chiqarishga, qolaversa, ularni ham ijodiy faoliyatga tortishadi. Shuning uchun hordiq chiqarish va ijodiy jarayonga qo'shilish metodlarini bir-biridan ajratish qiyin.

Madaniy tadbirlarni tashkil etish ko'p repetitsiyalar asnosida amalga oshiriladi. Tadbirni tayyorlash uchun havaskorlar tashkilotchi boshchiligida ko'p mashq qilishadi. Bu jarayonni tashkil qilish uchun ham alohida metod, ya'ni mashq qilish metodi kerak. Bu metod boshqa metodlardan shu bilan farq qiladiki, u faqat tadbirni tayyorlash jarayonida qo'llanadi. Shuni unutmaslik kerakki, mashq qilish metodi, asosan, tadbir tayyorlovchi rejjisorning havaskorlar bilan ishlash jarayonida amalga oshiriladi. Biroq bu metod faqat birgina tadbir tayyorlash uchun kerakli harakatlarni va so'zlarni o'zlashtirish uchun zarur bo'lib qolmaydi, balki har bir mashq jarayonida havaskorlar madaniy tadbirlar sohasiga oid bilimlarni o'zlashtirishi, so'z va harakat mahoratini amaliy o'rganishi, o'z qobiliyatini o'stirishi lozim. Bu boradagi qonun-qoidalarni chuqur anglagan va o'zlashtirgan kishilargina ijodiy faoliyat ko'rsata oladi. Hordiq chiqarish va ijodiy jarayonga qo'shilish metodlari ichida auditoriyani faollashtirish va ommani tadbir qatnashchisiga aylantirish metodi muhim o'rin tutadi. Chunki bu jarayonlarsiz tadbir qatnashuvchilari passiv tomoshabinlarga aylanib qoladi. Buning natijasida ular na yaxshi hordiq chiqarishadi va na ijodiy jarayonga qo'shilishadi.

Tadbir auditoriyasini faollashtirish barcha sanab o'tilgan metodlardan samarali foydalanish natijasida ham o'z-o'zidan vujudga kelishi mumkin. Tadbir voqealarini yaxshi bayon etish, diqqatga sazovor ma'lumotlarni namoyish qilish, namunaviy faoliyatlarni aks ettirish, ilg'orlarni ma'naviy taqdirlash, qoloqlarni tanqid qilish va mazmunni ishonarli qilib ko'rsatish kabi holatlarning samarali bajarilishi ommani so'zsiz aktivlashtirib yuboradi. Lekin shu bilan birga, ommaviy tadbirlarda maxsus aktivlashtirish metodi ham qo'llanishi mumkin. Buning uchun tadbir qatnashchilaridan intervyu olish, ular bilan savol-javob uyushtirish,

ba'zilarni so'zga chiqarib, fikrini bilish, viktorina uyushtirish va boshqa shu kabilarni bajarish mumkin. Ba'zi sahnaviy harakatlarni zal, omma ichiga ko'chirish ham auditoriyani aktivlashtirishga ko'maklashadi. Shuni unutmaslik kerakki, faqat aktiv auditoriya tadbir qatnashchisiga aylanishi mumkin. Tadbir qatnashchisiga aylantirish metodi – bu oliy va eng samarali metod hisoblanadi. Mazkur usulni bajarish uchun ham boshqa barcha metodlardan samarali foydalanish bilan birga, maxsus harakatlardan foydalanish ko'zda tutiladi. Masalan, auditoriya ichida ashulalar aytish, ommaviy raqslar tashkil qilish, xalq oyinlaridan foydalanish, umumiy qarorlar qabul qilish va boshqa harakatlar, so'zsiz, auditoriyani tadbir qatnashchisiga aylantirib yuboradi.

Har qanday tadbirni tashkil etishda rahbardan juda katta mehnat talab qilinadi. Shu o'rinda aytib o'tish joizki, tashkiliy ishlar ijodiy ishlar bilan bir xil darajada turadi. To'g'ri, ijodiy sharoitlarning ham o'ziga xos ishlash uslublari bor, ammo, mana shu ijodiy jarayonni amalga oshirishning tashkiliy tomonlarini hisobga olish muhimdir. Oddiy misol qilib oladigan bo'lsak, bitta musiqiy nomerni sahnaga olib chiqish uchun ham unga bir qancha tashkiliy ishlarni amalga oshirish kerak bo'ladi, masalan, ansambl uchun joy tayyorlash, mikrofon qo'yish, xonanda va musiqachilar uchun liboslar tanlash va h.k.z. Madaniy tadbirlarni uyushtirishning o'ziga xos xususiyatlari faqat uning o'ziga mansub tashkil qilish metodlarini talab qiladi. Tashkil qilish metodlari deganda, tadbirni vujudga keltirish uchun qo'llaniladigan usul, uslub va vositalardan foydalanish yo'llari tushuniladi. Qisqa qilib aytganda, bu metodlar ta'sirchan vositalardan foydalanish usullari bilan ko'proq bog'liqdir.

Hozirgi kunda o'tkazilayotgan madaniy tadbirlarda eng faol ishlatiladigani - bu ilyustratsiyalash metodidir. Bu metod - tadbirdagi so'z mazmuniga (boshlovchilar matni, boshqaruvchilar fikri va boshqalar) va maqsadiga mos keladigan turli-tuman badiiy va san'at vositalaridan foydalanishdir. Bunda foydalaniladigan vositalarning sintezlashib, bog'lanib ketishi shart emas. Ilyustratsiyalashtirilgan tadbirda asosiy urg'u og'zaki so'zga beriladi. Boshqa badiiy materialliar esa uni kuchaytirish va to'ldirish uchun xizmat qiladi. Muzika,

qo'shiq, raqs, she'r, monolog, proza, kinokadrlar va boshqa vositalardan illyustratsiya sifatida foydalaniladi.

Ilyustratsiyalashtirish metodini sof ilmiy tadbirlarda ham qo'llash mumkin. (odatda, ilmiy tadbirlar ko'proq ma'ruza shaklida bo'ladi) Masalan, leksiyaning illyustratsiyalashtirish, ya'ni unga konsert nomerlarini yoki kinolardan lavhalar qo'shish natijasida leksiya-konsert yoki kino-leksiya vujudga kelishi mumkin.

Madaniy tadbirlarni tashkil etishda bir usul bor, bu usul tadbirni to'laqonli g'oyaviy jihatdan to'liq yoritilishiga, mavzuni aniq tushunishga, yordam beradi. Bu -teatrlashtirish deb ataladi.

Teatrlashtirish –teatr dramaturgiyasi qonuniyatlariga asoslanib, ma'lum voqea asosida amalga oshiriladi. Bu metod alohida maqsadga qaratilgan, badiiy obrazli tashkil etilgan, teatr qonuniyatlari asosida, dramaturgiya talablariga javob bera oladigan tadbirlarda o'z ifodasini topadi. Bunda tadbir jarayonida qo'llaniladigan barcha g'oyaviy emotsional vositalar hamda og'zaki chiqishlar kompleks tarzda birlashadi va yagona syujet liniyasini vujudga keltiradi. Teatrlashtirilgan tadbirlarning alohida qismlari mexanik tarzda birlashmaydi, balki organik tarzda sintezlashadi. Bu qismlar endi na faqat tadbir temasi va g'oyasi asosida, balki kompozitsion holda ham birlashadi. Ko'p joylarda madaniy-ma'rifiy ishlar tashkilotchilarining tipik xatosi shundan iboratki, ular tadbirlarda, asosan, dramatik lavhalardan hamda boshqa san'at vositalaridan, ashula va raqslardan foydalanib, uni «teatrlashtirilgan shakl» deb nomlashadi. Bu, albatta, teatrlashtirish metodini qo'llash talablaridan biridir.

Teatrlashtirilgan tadbirlar yagona g'oyaviy-badiiy syujet va kompozitsion tuzilishga ega bo'lishlari kerak. "Kompozitsion tuzilish" (lotincha "qurmoq"- asar qismlarining tuzilishi, mantiqiy joylashishi va uning o'zaro bog'lanishi, degan ma'noni anglatadi) o'z ichiga quyidagilarni oladi:

-prolog(voqealarning boshlanish qismi, adabiyotda ekspozitsiya, kirish yoki muqaddima);

-(asardagi tub burilish yasaydigan qismi);

-voqealar rivojlanib borgan sari u kulminatsion nuqtaga chiqadi (kulminatsiya- harakat rivojlanishining eng yuqori nuqtasi) ;

-yechim –asarning nihoyasi nima bilan tugaganligini anglatuvchi qism (yechimda xulosa qismi sifatida epilog berilishi mumkin); A.D.Silin o‘zining “Rejissyorning ochiq maydonlarda va noan’anaviy sahnaviy kengliklarda ishlashi” kitobida, kopozitsion tuzilish prolog, epizodlar qatori va finaldan iborat bo‘ladi¹⁶, deb ko‘rsatib o‘tgan.(

Teatrlashtirilgan tadbirlarga real qahramon obrazi yoki badiiy asarlardan olingan obrazlar kiritilishi maqsadga muvofiqdir. Ko‘pgina tadbirlarda boshqaruvchi hayotimizning real vakili sifatida chiqadi. Lekin hanuzgacha teatrlashtirilgan tadbirlarda badiiy yoki tarixiy obrazlar kam uchramoqda. Ulardan foydalanish tadbirning badiiy qimmatini oshiradi.

Teatrlashtirilgan tadbirlarda omma oddiy tomoshabin emas, balki tadbir qatnashchisiga aylanib ketishi kerak. Yuqorida qayd qilingan talablarni hisobga olgan ommaviy shakllarni teatrlashtirilgan tadbirlar deb atash mumkin. Teatrlashtirilgan tadbirni vujudga keltiradigan teatrlashtirish metodi murakkab, ko‘p ishlashni, chuqur ijodiy yondashishni talab qiladigan usuldir. Yengil, oson bajariladigan ishning har doim samarasi kuchli bo‘lavermaydi.

Shuni ta’kidlab o‘tish kerakki, illyustratsiyalashtirish metodini ham, tetrlashtirish metodini ham xohlagan shaklga nisbatan ishlatib bo‘lmaydi. Har bir metodning o‘zi talab qiladigan tadbirlari bor. Masalan, illyustratsiyalashtirish metodini ommaviy bayramga nisbatan qo‘llasak, ko‘p narsa yutqaziladi. Leksiya yoki suhbatni tetrlashtirishning hojati bo‘lmasa kerak.

Ilyustratsiyalashtirish metodidan tashkil qilinishi oson, har kuni o‘tkazilishi mumkin bo‘lgan shakllarga nisbatan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Tetrlashtirish metodini esa shaxsiy-madaniy qimmatini balandroq bo‘lgan kompleks shakllarda foydalanish zarur. Uni ayniqsa, ommani

¹⁶A.D.Silin. “Rejissyorning ochiq maydonlarda va noan’anaviy sahnaviy kengliklarda ishlashi”. M., 1988., 776.

hayajonlantiradigan, buyuk sanalarga va bayramlarga bag'ishlangan tadbirlarda qo'llash lozim.

Bir so'z bilan aytganda, madaniy tadbirlarni tashkil etish mobaynida usullarni to'g'ri tanlash, ulardan oqilona foydalanish – tadbirning to'laqonligini ta'minlaydi, saviyasini oshirishga xizmat qiladi.

2.2. Ssenariy–madaniy tadbirlarning asosi (davlat tadbirlari misolida)

Madaniy tadbirlarni tashkil etishning ilk bosqichi –stsenariy yaratish ustida ish olib borishdir. Tadbirlarni tashkil etish asosan, ikki qismdan iborat bo'ladi:

1. Dramaturgiya (seneriy) asarini yaratish.
2. Yaratilgan asarni sahnalashtirish (asar rejissurani amalga oshirish)¹⁷.

Teatrlashtirilgan ommaviy tadbirlar dramaturgiyasi va rejissurasi bir butun jarayondir. Ma'lumki har bir ishni boshlashdan oldin, ishni bajarilishi yuzasidan maxsus reja tuziladi. Teatrlashtirilgan ommaviy tadbirlarni tayyorlashda ham eng avvalo uni rejalashtiradi.

Tadbirni o'tkazish uchun tashkiliy guruh tuzilib, unga rahbar tayinlanadi. Rahbar tadbirning yuqori saviyada o'tishi uchun shu soha mutaxassisleri: mahalliy dramaturglarni, rejissyorlarni, baletmeyster hamda madaniyat va san'at muassasasi ijodiy xodimlarini jalb etadi.

Maxsus bir tadbir uchun eng avvalo mas'ul shaxslar-seneriy muallifi va rejissyor kelishgan holda, umumiy reja asosida har bir kishiga taalluqli ishlarning rejalarini, kundalik ish faoliyatini aniqlaydi.

Tashkiliy guruh o'z o'rnida bo'lg'usi teatlashtirilgan ommaviy tadbirning g'oyasi, maqsadi, ijtimoiy holatidan kelib chiqqan holda uning dramaturgiyasi (seneriysi)ni yaratadi.

¹⁷ Qoraboyev U.X. Badiiy-ommaviy tadbirlar. T., O'qituvchi. 1986 y.

Teatr san'atining asosini pesa tashkil qilsa, ommaviy tadbirlar asosini seneriy tashkil qiladi. **Ssenariy - italyancha «Scenario» so'zidan olingan bo'lib, asar tuzilmasi ma'nosini anglatadi. Stsenariy - mahalliy dalillarga asoslanib yozilgan adabiy-dramatik asardir.**

Ommaviy bayram va tomoshalar dramaturgiyasining asosini ctsenariy tashkil etadi. Stsenariy tadbir mazmunini adabiy tasvirlash bo'lib, bunda jiddiy ketma-ketlik asosida harakat elementlari bo'lmish mavzu va g'oya, bir bo'lakdan ikkinchisiga o'tish, bloklar, bezaklar, matnlar to'liq ko'rsatiladi.

Ommaviy bayramlar rejissurasi sohasida faoliyat yuritayotgan malakali pedagog, taniqli rejissyor F.E.Ahmedov "Ommaviy bayramlar rejissurasi asoslari" darsligida seneriyning quyidagi turlarini ta'kidlab o'tadi:

1. Kino sseneriy:

- a) badiiy filmlar sseneriysi;
- b) hujjatli filmlar sseneriysi;
- v) ilmiy-ommabop filmlar sseneriysi;
- g) qo'g'irchoq va multfilmlar sseneriysi.

2. Televizion sseneriylar:

- a) adabiy-badiiy ko'rsatuvlar sseneriysi;
- b) publitsistik - axborot ko'rsatuvlar sseneriysi;
- v) ma'naviy - ma'rifiy ko'rsatuvlar sseneriysi;
- g) ijtimoiy-siyosiy ko'rsatuvlar sseneriysi;
- d) o'yin-ko'ngil ochar ko'rsatuvlar sseneriysi;
- e) televizion filmlar sseneriysi;
- j) musiqiy ko'rsatuvlar sseneriysi va h.k.

3. Radioeshittirishlar sseneriysi:

- a) ijtimoiy-siyosiy eshittirishlar sseneriysi;
- b) adabiy - badiiy eshittirishlar sseneriysi;
- v) publitsistik-axborot eshittirishlar sseneriysi;
- g) musiqiy eshittirishlar sseneriysi;
- d) ma'naviy - ma'rifiy eshittirishlar sseneriysi;

e) o‘yin-ko‘ngil ochar eshittirishlar sseneriysi va h.k.

4. TSirk tomoshalari sseneriysi

5. Ommaviy bayram va tomoshalar sseneriysi¹⁸

Ommaviy bayramlar sseneriysi - sintetik asardir. Ommaviy bayram va tomoshalarda qahramonlarning masshtabi juda ham kengdir. «Har bir seneriyning badiiy darajasi, umumiy dramaturgiyada bo‘lganidek, epizodlarning dramaturgik tugallanganligi, kartinaning obrazli yakunlanganligi, tomoshabinga ta’sir etuvchi emotsional kuchlarning boshidan oxirigacha rivoji, dramaturgiya talablariga javob bera olishi bilan belgilanadi. Shunday bo‘lishiga qaramay, ommaviy bayram va tomoshalar seneriysi, teatr uchun yozilgan pesadan, badiiy filmga yozilgan seneriydan farq qiladi. Undagi publitsistik vazifalar, ahamiyatli, ijtimoiy hodisalar aniq qahramonlarning shaxsiy qarama - qarshiliklari orqali emas, balki ijtimoiy ziddiyatlarni epik printsip bo‘yicha, yaxlit namoyish etiladi»¹⁹.

Ommaviy bayram va tomoshalar seneriysi tomoshabinga emotsional ta’sir qilish borasida keng imkoniyatlarga ega. Bunda seneriy muallifi, tomoshabinlarga berilgan tarixiy dalillarga bo‘lgan munosabatiga suyanishi mumkin.

Teatrlashtirilgan ommaviy tadbirlarni tayyorlash jarayonida seneriy yozish uchun ijodkor shaxslar, shoir yoki yozuvchilar taklif qilinadi. U rejissyor bilan ijodiy hamkorlikda seneriy yaratadi. Lekin ba’zi tadbirlarimizda ayniqsa chekka tuman va qishloqlarimizda o‘tkaziladigan tadbirlarda mazkur hududdagi madaniyat uyi rahbari yoki maxsus mutaxassisning bir o‘zi shug‘ullanadi. Bunday holatda u ham tadbir seneriysini yozadi, ham uni sahnalashtiradi. Ba’zi hollarda bu ijobiy, ba’zi xollarda salbiy natija beradi. Bayramshunos olim, professor U.X.Qoraboyev bu xususida “Badiiy ommaviy tadbirlar” kitobida shunday yozadi: “Stsenariy yozish bilan kim shug‘ullanmasin, u quyidagi talablarga javob bermog’i lozim:

¹⁸ Ahmedov F.E. “Ommaviy bayram va tomoshalar rejissurasi va aktyorlik mahorati”. T. CHO‘lpon. 2007 y.

¹⁹ Д.Н.Аль. Основы драматургии и сценарного мастерства. Л., 1991 г.

a) ijtimoiy-siyosiy, madaniy hayotni, mahalliy aholi mehnati va turmushini chuqur tushuna oladigan hamda uni to'g'ri tahlil qila oladigan shaxs bo'lmog'i;

b) adabiyot va dramaturgiya sohasida bilimga ega bo'lgan, ulardan samarali foydalana oladigan kishi bo'lishi;

v) hayotiy materiallarni, hujjatli dalillarni yig'a oladigan, ularni adabiy-badiiy shaklda bayon qila biladigan ijodkor bo'lmog'i lozim²⁰".

Ko'rinib turibdiki, seneriy muallifi rejissyor bilan ijodiy hamkorlikda hayotiy va mahalliy materiallardan foydalanib, badiiyat qonuniyatlari asosida, o'z g'oyasiga, mazmuniga ega bo'lgan yangi asarni yarata oladigan ijodkor bo'lmog'i lozim. Muallif puxta seneriy yaratish va uni tashkiliy guruhga o'z vaqtida topshirish uchun ish jarayonini rejalashtirish lozim.

Misol uchun 8 mart-“Xalqaro xotin-qizlar kuni”ga bag'ishlab 2003 yil 7-mart kuni Abdulla Qodiriy nomidagi Toshkent Davlat Madaniyat institutida bo'lib o'tgan *“Muqaddas ayol”* teatrlashtirilgan tomoshasining seneriy yaratishdagi kundalik ish jarayoni quyidagicha bo'lgan:

1. 20-25 yanvar-tadbir mavzusini, g'oyasini aniqlash, seneriy mazmunini belgilash, uning taxminiy kompozitsiyasini tuzish.

2. 25-30 yanvar-seneriy yaratish uchun zarur hujjatli, hayotiy va badiiy materiallar to'plash.

3. 1-10 fevral-seneriyning xomaki variantini qog'ozga tushirish.

4. 10-12 fevral-seneriyning tugallab, muhokama qilish uchun kafedra o'qituvchilariga topshirish.

Stsenariy yaratishda bo'lajak tadbirlarning g'oyaviy - mavzu asosini chuqur o'ylamoq lozim. Eng muhimi shundaki, seneriy asosida muhim ijtimoiy va mahalliy aholining hayotiga yaqin bo'lgan qiziqarli mavzu yotishi kerak.

Mavzu - bu tadbir uchun tanlangan, mahalliy aholini har tamonlama qiziqtiradigan, barcha voqea-hodisalarni birlashtiruvchi omildir.

²⁰ Qoraboyev U.X. Badiiy-ommaviy tadbirlar. T., O'qituvchi. 1986 y.

G'oya - bu tadbirda ilgari suriladigan asosiy fikr. Fikrning kuchli va aniqligi tomoshabinni zeriktirishga qo'ymaydi. Shuning uchun g'oyaning oydinlashishi tadbir oxiriga mo'ljallanishi kerak. Tadbir davomida tomoshabinlar ijtimoiy g'oya haqida, uning asosiy fikri haqida o'ylasin, qiziqishi orsin. Amalda esa ko'pgina tashkilotchilar g'oyani tayyor ko'rinishda, tadbirning boshlanishidayoq berib qo'yishadi. Bu esa tomoshabinning tadbirga bo'lgan qiziqishini kamaytiradi, tadbir qiymati pasayadi.

Maqsad-bu tadbirning tomoshabinga "nima demoqchi" ekanligidir. Har bir seneriy muallifi va rejissyor asar yaratishdan oldin, "men bu orqali tomoshabinga nima demoqchiman?" tariqasida o'ziga savol bermog'i va o'z o'rnida asar orqali javob qaytarmog'i lozim. Tadbirga qo'yilgan maqsad voqealar zanjiri bo'lib, u voqea harakatlarida rivojlanib boradi. Voqealar rivoji tabiiyki konfliktga borib taqaladi.

Stsenariyning ta'sirchanligini oshirish uchun maxsus hujjatlardan: buyruqlar, nizomlar, xatlar, kundaliklar, shaxsiy, oilaviy albomlardan, fotohujjatlar, davlat va shaxsiy arxiv materiallaridan foydalanish mumkin.

Kompozitsiya - bu lotincha so'zdan olingan bo'lib "*bir butunlik, yaxlitlik*" ma'nosini bildiradi.

Tadbir kompozitsiyasi - Asarda sodir bo'layotgan voqea-hodisalarni bir maqsad sari yetaklovchi g'oya orqali, dramaturgiya qonuniyatlari asosida bir-biri bilan bog'lovchi tuzilmadir. Teatrlashtirilgan tadbirlarning kompozitsion tuzilishi prolog (muqaddima), bosh voqea, voqealar rivoji, tugun, qarama-qarshilik, kulminatsiya, final kabi komponentlarni o'z ichiga oladi. Ba'zi hollarda teatrlashtirilgan tadbirlar, xususan ommaviy bayramlarning kompozitsion tuzilishida tugun, qarama-qarshilik, yechim kabi komponentlar uchramaydi. Chunki bu tadbir to'laqonli teatrlashtirilmagan bo'lib maqsad va g'oya asosan qo'shiq mazmuni va raqs harakatlarida yuzaga chiqariladi.

Prolog- asarning boshlanish qismi bo'lib tadbir nima haqidaligidan xabar beradi. Tomoshabin diqqatini asosiy voqealarga qaratadi. U ko'tarinki kayfiyat, go'zallik va nafislikni talab qiladi. Bu qismda hujjatli materiallar, filmlardan

lavhalar, ta'sirchan vositalardan keng foydalanish mumkin. Prolog nafaqat sahnada balki tadbir o'tkaziladigan maydonga kirish yo'lakchalaridan ham boshlanishi mumkin.

Bosh voqea - bu prologdan keyingi ko'rinish bo'lib, voqealar rivojini ta'minlovchi omildir. Bunda tadbirning g'oya va maqsadiga ozroq bo'lsada urg'u beriladi.

Voqealar rivoji - bu tadbir mazmuni va syujetining murakkablashuviga yordam beruvchi voqealar bo'lib, ular tugun, qarama-qarshilik, kurash, to'qnashuv va qiyinchiliklarni yengish jarayonidir.

Tugun - bu tomoshabinning bevosita fikri va his-tuyg'usining ma'lum bir jumboqqa qaratilishi. Ya'ni asar qahramonlarining kutilmagan voqealarga yuz kelishi. Tugun asarda qarama-qarshilikning kuchayishiga, asosiy voqealarning rivojlanishiga turtki bo'lishi kerak.

Qarama-qarshilik - bu tadbir maqsadi va mazmuniga, asardagi qahramonlarning hatti-harakatiga zid bo'lgan voqeadir. Qarama-qarshilik qanchalik kuchli bo'lsa, tomoshabinning tadbirga qiziqishi shunchalik ortadi.

Ommaviy bayram va tomoshalar seneriysi tomoshabinga ko'p tomonlama emotsional ta'sir qilishi bilan birga tomoshabinlarni bayramning faol ishtirokchisiga aylantirib, tomoshabinni, qahramonlar o'rtasidagi u yoki bu qarama-qarshiliklarga bo'lgan munosabatlari, kechinmalarida birga bo'lishni talab qilmaydi. Shuning uchun ommaviy bayram va tomoshalar seneriysida doimo qarama-qarshilikning bo'lishi talab qilinmaydi. Masalan, «Navro'z», «Mehrjon», «Birinchi qadam» bayramlari, xalq sayillari. Bunday bayram va sayillarda teatrlashtirish janrlaridan foydalanilmasa umuman qarama-qarshilik bo'lmasligi mumkin.

Kulminatsiya - bu voqealar rivojining eng yuqori nuqtasi, tadbirning eng qiziqarli cho'qqisi demakdir. U o'z-o'zidan yechimga olib keladi. Kulminatsiyani o'zida ifodalagan epizod to'g'ri va bevosita tomoshabinning fikri, tuyg'ularini qo'zg'ash kuchiga ega bo'ladi.

Final - bu asarning yakuni, oxirgi eng muhim qismi. Finalda barcha voqea o'z yechimini topadi. Final ko'tarinki kayfiyatda, barcha ishtirokchilarning sho'x-shodonligi bilan yakunlanadi. Finalning yaxshi tugallanmasligi tomoshabin his-tuyg'ularining susayishiga, asar qimmatining pasayishiga olib keladi. Final ba'zi hollarda butun ijrochilarning sahnaga ommaviy chiqishlarida, jamoa bo'lib qo'shiq aytishlarida namoyon bo'ladi.

Teatrlashtirilgan tadbirlarning kompozitsion tuzilishi ham, adabiyotda bo'lganidek har xil joylashishi mumkin. Masalan; tugun va qarama-qarshilik prologdan keyin kelishi, yoki qarama-qarshilik va tugunning joyi almashishi ham mumkin. Bu holat tadbirning mazmun va maqsadiga asoslangan holda xato hisoblanmaydi.

Stsenariy muallifi yuqoridagi talablarga tayangan holda puxta seneriyni yaratadi. Rejissyor seneriyni qo'lga olar ekan uni eng avvalo tahlil qilib chiqadi.

Ommaviy teatrlashtirilgan tomoshalar seneriysida harakatning uzviyligiga real bo'layotgan voqealarni faqatgina qayd etish bilangina emas, balki eng muhim masalalar g'oya va mavzudan kelib chiqib, erishiladi. Ommaviy bayram va tomoshalar elementlarining kompleksliyligi va ko'p tomonliligi uning seneriysining o'ziga xos xususiyatidir. Stsenariyda albatta ekspozitsiya bo'lishi shart (ekspozitsiya lotincha «expositio» - ta'riflash degan ma'noni bildirib, adabiy asarning kirish qismidir). Stsenariyda ekspozitsiya rivojlanib, tugunga boradi. Ekspozitsiya va tugun juda ham aniq bo'lishi lozim, chunki ular bo'lib o'tayotgan voqea-hodisalarni to'g'ri qabul qila olish uchun tomoshabinni tayyorlay olishi kerak. Ko'pincha ommaviy bayramlarda, xalq sayillarida yoki alohida o'yin momentlari, tomoshalarda esa kinovideolavhalar ekspozitsiya deyiladi.

Drama so'zi yunonchadan-xatti-harakat degan ma'noni bildirib, sahnadagi harakatga mo'ljallangan, dialoglar shaklida qurilgan adabiy asarning turidir.

Drama tushunchasining mohiyatini tarixiy nuqtai nazardan qarasa Arastuning “dramada san’atning spetsifik turi sifatida harakat asosiy o’rinni egallaydi”²¹ degan fikrga qo’shilmay bo’lmaydi.

Teatr uchun mo’ljallanmagan, o’qish uchun yozilgan pesalarni dramatik asarlar qatoriga qo’shib bo’lmaydi. Bu asarlar dramaturgik shaklda yozilgan bo’lishiga qaramay ko’prok prozaga moyildir. Bunday asarlarni sahnalashtirish uchun qo’shimcha ravishda instsenirovka qilish lozim.

Dramaturgiyani adabiyotning turi sifatida ochib berishda, uning spetsifik o’ziga xos xususiyatlariga diqqatni jalb qilish lozim.

Masalan: Dramatik asarni tomoshabinlarga teatr uslublari orqali ta’sir qilish mexanizmi o’quvchilarga o’qish uchun mo’ljallangan ta’sir qilish mexanizmidan tubdan farq qiladi.

Dramatik asar jamoa bo’lib ijod qilish uchun mo’ljallangan. Dramaturgiyaning o’ziga xos xususiyati shundaki, uni tiklash, qayta tiklash uchun butun jamoa - rejissyor, aktyorlar, rassom, kompozitor, sozandalar va hokazolarning hamjihatligi talab qilinadi

Pesadagi bir-biriga qarshi chiqayotgan kuchlarni tasvirlayotgan dramaturg ikkala tomonga yon bosa olmaydi. U albatta kurashayotganlarning biron-tasini tarafini oladi. Shu sababli dramaturgiya tabiati buyicha san’atning (adabiyotning) tarfkash turidir.

Badiiy durdona olamida adiblar, shoirlar, tanqidchilar, olimlar adabiyot nazariyasi va uning turlari haqida ko’p bosh qotiradilar va ularni ma’lum bir meyoriga yetkazib beradilar. Ular adabiyotda asosan uch turga xos ekanini aniqladilar. Bular epos, lirika, drama. Shu bilan birga har bir turning bo’laklari mavjudligi, ya’ni janrlarga bo’linganligini ham ilmiy - adabiy jihatdan asosladilar. Masalan, epos (nasr)ga roman, povest, qissa, hikoya, ocherk, esse, rivoyatlar, latifalar, ertaklar, cho’pchaklar kiradi.

²¹ Abdusamatov X. Drama nazariyasi. T., 2000 y.

Bulardan tashqari she'riy asarlar ham ya'ni ballada, lirik-epik poema, epik doston, masallarni epik janrlar tarkibiga kiritish mumkin.

Lirika ham o'z bag'riga qator janrlarni qamrab oladi. Bular poema, she'riy roman, qasida, sonet, ballada, lirik she'r, parodiya ashulalardir.

Shuni aytib o'tish kerakki, adabiyot tarixida badiiy asarlarni tur va janrga ajratishda turlicha atamalarni ham qo'llab kelishgan.

«Dramani badiiy adabiyotning qiyin turi deb atalishi yana shundaki, unda voqealarni shunday ko'rsatish kerakki, ular ixcham ravishda namoyon etilishini, personajlarning xarakterini so'z va yumush bilan elastik holda, aniq va to'liq ochishni, tushuntirish, bayon etish, izoh berishdan to'la ravishda holi bo'lishi keraksiz tafsilotdan qocha bilish san'atini egallashni talab qiladi»- deb yozgan edi X.A.Abdusamatov²².

Dramaning xususiyati shundaki, uning muallifi tomoshabin bilan o'z qahramonlari orqali bevosita gaplashadi, muloqatda bo'ladi. Dramaturg qahramonlarning faoliyatini ko'rsatib, axloqini ifodalab, ruxiy olamini ochib, o'zining hayot haqidagi tafakkurini izxor etadi, davrning muhim, dolzarb masalalariga munosabatlarini bildiradi. Bu hol dramada qahramonning ahamiyatini yanada oshiradi, uning turmush mezonini aniqlaydigan shaxsga aylantirib yuboradi. Mana shundagina qahramonning hayotiy zamini, qilmishlari va xatti-harakatlarining ahamiyati ko'zga tashlanadi. Bunday qahramon dramaning g'oyaviy mohiyati bilan uzviy bog'lanib, uning tub ma'nosini gavdalantiradi, qarama-karshilikning rivojiga hissa qo'shadi.

Dramani boshqa turdan farq qiladigan tomoni shundaki, muallif yuz bergan harakatni, hodisani, tomoshabinlarning bevosita ko'z oldiga keltirib ijod etadi.

Yuz bergan hodisa urg'u berilishining boisi shundaki, asar diolog va monologlardan tashkil topib, muallif «chetlashtirilib», o'z so'zidan mahrum

²² Abdusamatov X. Drama nazariyasi. T., 2000 y.

qilinadi. Voqea va hodisa to‘la ravishda harakatda o‘z ifodasini topishi tufayli muallifni bayonchilikdan, hikoya etishga forig’ etadi.

Dramaturg tomoshabinga hech narsani tushuntirmasdan, qahramonlarning qilmishlarini bayon qilmasdan voqealarga shunday harakat berib yuboradiki, shundan tomoshabinga hamma narsa ayon bo‘lganday bo‘ladi. Kelgusi voqealar oqimiga nazar tashlay biladi, ularni hayajon bilan kuzatadi.

Ma’lumki, muallif personaj tarjimai holini berishda juda cheklangan. Nasm va nazmda qahramonning kelib chiqishi, qayerda yashagani, ilgari nima ish qilgan, hozirda nimalar bilan shug‘ullanayotganligi, ota-onasining hayotini, qarindosh-urug‘larini keng yoritib berishi mumkin.

Drama esa insonlarning qismatlarini, ichki olamlarida tez-tez yuz beradigan kechinma va tovlanishlarini muallif o‘z tili bilan har tomonlama ochib berish imkoniyatiga ega bo‘lmaydi. U o‘z qahramoni bilan romanchidek doim birga bo‘la olmaydi, o‘quvchilarga ularni qanday tushunish kerakligini aytib bera olmaydi. Shaxslarning sirli fikrlarini, xarakterlaridagi yashirin motivlarini, kuchli kechinmalarning sabablarini tushuntirishdan xolidir. Shunday bo‘lgach, dramaturg o‘z asarining syujetini, shunday tuzishi, voqealarni shunday ifoda etishi lozimki, ularda qahramonlar va vaziyatlar, xarakterli xususiyatlar, personajlarning zarur qirralari ochiq-oydin to‘laligicha namoyon bo‘lishi kerak. Bulardan tomoshabin muallif ayta olmagan, bo‘lishi mumkin bo‘lmagan narsalarni ham fahmlab olsin.

Dramaturgiyada, dramatik asar asosan uch janrga bo‘linadi.

Drama, komediya, tragediya

Dramaning o‘zi esa bir qancha turlarga bo‘linadi.

Melodrama, musiqali drama, tarixiy drama, maishiy drama, psixologik drama va ekstsentrik drama.

Komediya janri ham bir qancha turlarga bo‘linadi.

Yumoristik komediya, satirik komediya.

Tragediya janriga esa **optimistik tragediya va trakomediya** kiradi.

Dramaturgiyada turli janr ko‘rinishida yaratilayotgan asarlar yosh avlodni turli teatr uslublari bilan tarbiyalashda katta ahamiyatga ega. Insonni, g‘oyaviy va

estetik jihatdan tarbiyalash - adabiyotimizning muhim vazifalaridan biridir. Bu narsa, ayniqsa, hozirgi mustaqillik davrida alohida ahamiyat kasb etmoqda. Adabiyotning bir qismi bo'lgan dramaturgiyaning sahna asari sifatida teatrlarda qo'yilishi, bu turning emotsional ta'sirini oshiradi.

Dramaturgik tahlilning murakkabligi shundaki, yaxlit holda mavjud bo'lgan jarayonni, elementlari bo'yicha bo'lib, ko'rib chiqishiga to'g'ri keladi.

Yakunlangan asar strukturasi o'zgartirib bo'lmaslik - asar badiiyligining belgisidir.

Mukammal dramaturgik asar shunday qurilgan bo'lishi kerakki, undagi qayta qurishlar, ba'zi qismlarning olib tashlanishi yoki qo'shilishi, o'zgarishlar - she'riyatdagi kabi, yaxshi she'rdagi qofiya yoki so'zni o'zgartirib bo'lmagandek, asarga zarar qilmasligi lozim.

Dramaturgik asar yorqin belgilangan birlikka ega bo'lishi lozim. Bu umum qabul qilingan holatni aniqlash uchun nimaning birligi ko'zda tutilayotganini o'zimiz uchun bilib olishimiz lozim. Jahon dramaturgiyasining ko'p asrlik tajribasi, asarning badiiy bir butunligini saqlab qolish uchun, namoyish etilayotgan voqeda vaqt va joy birligiga albatta amal qilish shart emasligini ko'rsatdi. Ammo xatti-harakat birligi juda ham zarurdir.

Harakat pesa rivojining konflikti bo'lib, harakat birligiga rioya qilish, tasvirlanayotgan predmetning bir butunligiga rioya qilishdir. Albatta, harakat birligini buzish, tasvirlanayotgan predmetni o'zgartirishga yoki to'laqonli tasvirlay olmaslikka olib keladi. Shuni ta'kidlab o'tish joizki, dramaturgik asardagi harakat - asosiy konflikt yo'nalishining rivoji bo'lib, qahramonlar munosabatining o'sishidir.

Ekspozitsiya- asarning boshlang'ich qismi bo'lib, tomoshabinga (qayerda va qachon v x.k.) harakat bo'lyotganini, asarning qanday janrda ekanligi haqida ma'lumot berish.

Tugun - pesadagi konfliktni vujudga kelishi uning rivojini boshlanishi, uni hal etish uchun harakat.

Kulminatsiya - harakatlar tarangligining eng yuqori momenti, konfliktlarning keskinlashuvi.

Yechim - pesaning asosiy konfliktini yechilishi, harakatning asosiy manbai bo'lgan, konflikt keskinligini olinishi. Yechim natijasida, qahramonlar munosabatlari o'rtasida yangi holatlar vujudga keladi.

Echimning umumlashma ma'nosi berilgan pesadagi konfliktning aniq ma'nosi bilan hayotiy ob'ektiv ziddiyatlar mavzusi orasida o'rnatilgan assotsiativ aloqalar va ularning namoyon bo'lishi. Final dramaturgik kompozitsion butunlikning mezonidir.

Epizod - dramaturgik asardagi o'z mazmunida tugallangan - struktura va momentiga ega bo'lgan parchadir. Bu yerdagi epizodlarning turlari, asardagi epizodlar bo'yicha joylashishi publitsistik pesalardagi xarakterli mazmunini aniqlash lozim.

Ommaviy bayram va tomoshalar seneriysi esa - sintetik asardir. Unda dramaturgiya elementlari bo'lib, ko'prok epik asarlarga ba'zida lirik - epik asarlarga) yaqinlashib, u yoki bu masshtabli ijtimoiy hodisalarni aks ettiradi. Uning qahramonlari bir-biri bilan kurashmay, zamonaning u yoki bu tomonining ijtimoiy ziddiyatlari bilan kurashib katta yo kichik doirada xalq ishini bajaradilar.

Har bir seneriy dramaturgiyaning umumiy talablariga javob bera olishi har bir epizodning dramaturgik jihatdan tugallanganligi, obrazli kartinaning, tomoshabinga beriladigan emotsional ta'sirini boshidan oxirigacha o'sib borishi uning badiiylik darajasini belgilaydi. Shunday bo'lishiga qaramay tomoshalar seneriysi, teatr pesasi yoki badiiy film seneriysidan farqli boshqacha uslubda quriladi. Undagi publitsistik masalada, odatda, ahamiyatli, ijtimoiy hodisalarni aniq qahramonlarning shaxsi konfliktlari orqali emas, balki ijtimoiy konfliktning ahamiyati epik printsiptda namoyon bo'ladi.

Ommaviy bayram va tomoshalar seneriysi tomoshabinga emotsional tasir qilishning keng imkoniyatlariga ega. Muallif tomoshabinlarda mana shu tarixiy dalillarga, voqealarga bo'lgan munosabatiga tayanadi.

Ommaviy bayram va tomoshalar seneriy muallifi, o'z seneriysiga dramaturgik asarlardan parchalar olishi yoki aniq qahramonlar to'qnashuvini ifodalovchi dramaturgik xarakterdagi parchalarni o'zi yozishi mumkin. Bundan tashqari uning seneriysiga san'atning boshqa turlaridan - musiqa, qo'shiq, xoreografiya, sport-plastik chiqishlar, kino va video lavhalar namoyish etish, poeziya va h.k.lar kiritilish mumkin. Albatta seneriyda qancha ko'p badiiy vositalar qo'llanilsa, shunchalik qiyin bo'ladi. Lekin, g'oyaviy-badiiy jihatdan yaxlit bo'lgan asarni yaratish oson bo'ladi. Shuning uchun seneriy dramaturgiyasi, uni kompozitsion hal etilishi katta ahamiyatga egadir. Ommaviy bayram va tomoshalar seneriysi tomoshabinga ko'p qirrali emotsional ta'sir qilishdek imkoniyatga ega ekanligi, hamma vaqt ham tomoshabinni aniq qahramonlar orasidagi u yoki bu konfliktdagi kechinmalarni boshdan kechirishga unchalik jalb qilinmaydilar. Shuning uchun ommaviy bayram va tomoshalar sseneriysi asosida konfliktning bo'lishi shart emas. Ba'zi sseneriy mavzularida konflikt umuman talab qilinmaydi.

Agar sseneriydagi u yoki bu epizodda qandaydir ta'sirli ijtimoiy konflikt davrni tasvirlayotgan bo'lsa, demak butun sseneriy uni tasvirlashga qurilgan bo'ladi. Ommaviy bayram va tomoshalarda tomoshabinga kuchli emotsional ta'sir ko'rsatish uchun birgina uslubdan foydalanish shart emas.

Shu vaqtgacha teatr dramaturgiyasi nazariyasi va amaliyotiga amal qilib kelgani uchun, har bir ommaviy bayram va tomoshada konflikt bo'lishi kerak degan talabga rioya qilingan.

Ommaviy bayram va tomoshalar dramaturgiyasining yoshligi, san'atning mustaqil bir ko'rinishi sifatida endi odimlanayotganligi sababli, ming yillar davomida shakllanib kelayotgan dramaturgiyaning nazariyasiga tayangan.

Ommaviy bayramlarning o'ziga xos seneriy yo'nalishi deganda, seneriy muallifi va rejissyorlarning g'oyasiga javob beruvchi obrazlilik va tomoshabinlik bo'lishi lozim.

Ommaviy bayram, xalq sayillarida ekspozitsiya funksiyasini qatnashchilarning kostyumlashtirilgan teatrlashtirilgan yurishlari bajarishi

mumkin. Ekspozitsiya, tugun vazifasini esa, she'riy to'ldirishlar, pesalardan ko'rinishlar, filmlardan parchalar qo'shiqlar bajaradi.

Ssenariy kompozitsiyasida asosiy harakatda, kurash jarayoni voqealardagi to'qnashuvlarning zanjiri namoyish etiladi. Ssenariyning bir qismi quyidagilarga bo'ysunishi kerak.

1. Mavzuning jiddiy, g'oyaviy qurilishi seneriyning har bir epizodi bir-biri bilan **g'oyaviy ko'priklar** bilan birlashgan bo'lishi shart.

2. Harakat rivoji ekspozitsiya va tugun tomonidan harakat rivojlanish yo'nalishi bo'yicha kulminatsiya va yechimga olib boradi. Emotsional jihatdan kuchli epizodlardan, bo'sh epizodlarga o'tib bo'lmaydi. Ommaviy harakatga ishtirokchilarni jalb qilish uchun bunday emotsional momentga, ishtirokchilarni ruhan tayyorlash lozim.

3. Har bir epizodni yakunlanganligi. Ssenariy doimo epizodlarga quriladi, ularning har biri o'zining g'oyasiga ega bo'lib albatta boshqa epizod boshlanguncha tugallangan bo'lishi lozim. Minnatyurada har bir epizod seneriyini qaytarib, tugallangan kompozitsiya shaklida bo'lishi lozim.

4. Saflanishning kontrastligi. Bu talab ommaviy teatrlashtirilgan harakat kompozitsiyaga taaluqli bo'lib, ta'sirchan vositalarni sintezlash jarayonida bir xil buyoqlarni bir yoqlamaslik, monotonlikka yo'l qo'ymaydi.

Harakat albatta kulminatsiyasiga olib kelishi kerak. Kulminatsiya jarayonida teatrlashtirishning g'oyasi to'liq ochib beriladi.

O'zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi to'g'risidagi qonunning 3-moddasi yangi tahrirda bayon etildi. Unga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi:

...O'zbekiston Respublikasida nishonlanadigan umummilliy bayramlarga bag'ishlangan tantanali yig'ilishlar va majlislarning ochilishi chog'ida va boshqa bayram tadbirlarida ijro etidadi.²³

²³ Hasanov A. "Bilim: ezgulik va taraqqiyotga yo'l", T.: Turon zamin ziyo, 2015 y. 26-b.

Ya'ni Respublikamizning har bir fuqarosi kuzatib, ko'rib boradigan ko'rsatuv va bayram tantalarida bejiz Davlatimiz madhiyasi yangramaydi. Tadbir-tantalarda ishtirok etuvchi har bir fuqaro madhiyani shunchaki emas, balki, tik turib va o'ng kaftini ko'kraginging chap tomoniga qo'yib tinglaydi. Bu esa davlatimiz mahiyasi har bir fuqaroning qalb-qo'riga, yuragiga jo bo'lib, unda vatanparvarlik ruhini oshiradi.

2.3 Madaniy tadbirlarda ishlatiladigan texnik vositalar va zamonaviy interfeyslardan foydalanish yo'lalari

Bizga ma'lumki, texnik vositalar orqali madaniy tadbirlarni bezatish o'zining ko'p qirralariga yarasha san'atning ko'p turlari bilan omuxta bo'lib ketadi va shuning uchun talabalarda mehnatga, ishga ijodiy munosabatda bo'lishdek vazifani bajaradi, ularni ma'naviy jihatdan boyitadi.

Texnik vositalar orqali, san'at sohasidagi hozirgi zamon hayotining turli xil sohalarini, har xil voqealarni tematik jihatdan butunlay qamrab olishi kerak.

Bugungi kunda texnik vositalarning yangicha usullari bilan madaniy tadbirlarni bezatish ishi davlatning tashqi va ichki siyosatini, xalqning mehnatdagi yutuqlarini, mamlakatning tarixiy o'tmishini, ilmiy, badiiy hayotidagi yangiliklarni, tabiatni va boshqalarni ifodalash bilan bir qatorda insonlar uchun eng zarur bo'lgan madaniy ma'rifiy tadbirlarda uzuning turli xil qirralari bilan madaniy-xordiqiy dam olishida inson uchun xizmat qilishi kerak.

Yoshlarni ma'naviy tarbiyalashda texnik vositalarning turli shakllari yordami bilan targ'ibot va tashviqot ishlarini olib borishda, birinchi navbatda chiroyli qilib bezatilgan va alohida e'tibor bilan qaralishni talab qiladigan elektron ko'rgazmalar, elektron panolar, tablolar did bilan bezatilgan va professional darajada mehnat talab qilinadigan ko'chalar va bog'larga, korxonalar yoki muassasa eshigidan kiraverishdagi mahobatli o'rnatilgan elektron reklama panolar, millatimiz milliy qaxramonlari, ta'sirchan qilib o'rnatilgan ajdodlarimizning yodgorliklari, mehnat va harbiy jasorat kabi mavzulardagi turli xil elektron chiroqlar yordamida tashkil etilgan elektron pannolar, turli forma va shakllarda o'rnatilgan banerlar va

stendlar, binoning joylashi tasvirlangan elektron sxema va hokazolar zamonaviy texnik vositalarning turli shakllari va turlari yordamida bezatilishiga katta yordam beradi.

Shuningdek texnik vositalar orqali bezatilgan ishlar san'atining bir necha turlari qatorida o'sib kelayotgan insonga dunyoviy bilimni kuchaytirishga yordam beradi, uning yosh qalbiga vatanga bo'lgan muxabbatni, uni keng va turlicha fikrlashga odatlantiradi, xalqning ma'naviy madaniyatiga yaqinlashtiradi, eng muhimi, mehnatga ijodkorlik bilan yondashishga o'rgatadi va boshqa targ'ibot, tashviqot vositalaridan tezroq ta'sir etish kuchiga ega.

Zamonaviy texnik vositalar orqali ko'plab xordiqiy tadbirlarda foydalanish, ishlatish, yoshlarda ma'naviy – axloqiy va fuqarolik faolligini, vatanparvarlik hissini tarkib toptiradi.

Texnik vositlar orqali badiiy bezash ishlarida bino oldi, bino fayilarini elektron moslamalar orqali tez va ta'sircha vosita o'rnida katta bo'lmagan JKlar (qattiq kristalli ekran) o'rnatish va undagi ma'lumotlarni tayyorlash eng katta o'rin tutadi.

Elektron pano va ekranlarga juda ko'p va har xil axborotlar sig'ishi sababli u binoni va uning teritoriyasini bezashda eng operativ va qulay element hisoblanadi.

Madaniy tadbirlarda bo'ladigan tadbirlarni texnik vositalar orqali did bilan bezatilgan texnik bezatish ishlari talaba yoshlar bilan olib boriladigan g'oyaviy-tarbiyaviy ishning eng muhim maqsadlarini amalga oshirishga, ya'ni o'g'il va qizlarda dunyoqarash asoslarini, ijtimoiy aktivlikni, ongni intizomni, madaniy xulq-atvorni tarkib toptirishga, xuquqiy bilimlarni, mehnatga ijtimoiy mulkka munosabatni, kasb tanlashga intilishni shakllantirishga, badiiy qobiliyatni o'stirishga xizmat qilish kerak.

Har qanday metodik vazifa singari texnika vositalari orqali bezatish ishlari ham professional aniqlikka va ijodiy yondashishga asoslanishi kerak.

Shu sohaning professional mutaxassislari zamonaviy texnik vositalarning yangidan yangi turlari va shakllaridan foydalanish borasida o'zlarining samarali

izlanishlarini to'g'ri va konstruktiv yo'nalishga solsa, ijodiy yondashilsa, albatta niyat qilingan chuqiga erishish mumkin.

Mamlakatimizda o'tkaziladigan barcha Madaniy tadbirlarda zamonaviy texnik vositalaridan foydalanish insonlarda estetik qobiliyatini mustahkamlaydi, madaniy -xordiqiy tadbirlarni tashkil etishda, boshqarishda zamonaviy texnik vositalarning yangidan-yangi turlari va shakllaridan foydalanish yo'l yo'riqlari bilan tanishtirish bilan bir qatorda, zamonaviy texnik moslamalarning tuzilishi hamda ularning har xil ishlatilish printsiplari haqida ma'lumot beradi, yoshlarda estetik didni shakllantiradi, san'at asarlarini tushunish va qadriga yetishni o'rgatadi, mehnatga hurmat bilan qarash bilan birga unga bo'lgan muhabbatni tarbiyalaydi, mehnat qilish ko'nikmalarini egallashda yordam beradi.

Yuqorida aytib o'tilgan fikr va mulohazalardan kelib chiqqan holda, madaniy tadbirlarda zamonaviy texnik vositalaridan foydalanish imkoniyatlari

hozirgi zamon madaniyat va san'at maskanlarida yangi texnika vositlaridan foydalanishning ilmiy –nazariy, ilmiy- uslubiy masalariga atroflicha qaraldi.

Hozirgi kunda madaniy xordiqiy tadbirlarda texnik vositalarni ishlatish ishlariga, umuman zamonaviy texnik vositalariga e'tibor katta bo'lishi bilan bir qatorda ularning yangi kashf etilgan turlariga ehtiyoj katta bo'lmoqda.

San'atning inson ongi va qalbidan joy olishida, singishida madaniy hayotga kirib kelayotgan yangi zamonaviy texnik vositalari alohida ahamiyatga ega.

Yuqorida ta'kidlangandek, birorta san'at sohasi yo'qki, uning bugungi kundagi holati, faoliyati va yutug'i fan-texnika vositalarisiz bo'lishini ta'savvur qilish qiyin.

Ayniqsa, san'atning istalgan bir tur yoki janrini davr ruhiga moslashtirishda fan-texnika yutuqlaridan foydalanmaslik, yangi texnologiyalarni bu soha amaliyotiga tadbiiq etmaslik, umuman, kechirilmas xato bo'lar edi.

Zotan, O‘zbekiston o‘zining 22 yillik taraqqiyot yo‘lida jahon hamjamiyatiga tanilishining muhim jihati ham ana shu madaniy hayot yutuqlarini olamga ko‘z-ko‘z qilishi bilan belgilaniladi.

O‘zbekistonning madaniy hayotida faoliyat ko‘rsatayotgan davlat va nodavlat yo‘nalishdagi san‘at muassasalari, namoyish qilinadigan madaniy-ma‘rifiy tomosha va konsertlar xoh yopiq bino, xoh ochiq maydon sahnasida bo‘lmasin, o‘zlarining mahoratlarini, san‘atini texnik vositalarisiz ko‘rsataolmasliklari barchaga ayon.

Ayniqsa, minglab tomoshabinlarga stadion va katta konsert zallarida tomosha beruvchi qiziqchi, ashulachi hamda sozandalar so‘ngi paytlarda zamonaviy kompyuter texnikasiga moslashtirilgan ovoz kuchaytirigichlar, tadbir uchun maxsus yozilgan fonogrammalar, lazer qurilmasi yoritgichlari, rangli chiroqlar, generatorlar va proyektor texnologiyalaridan foydalanayotganliklari fikrimiz dalilidir.

Musiqqa san‘ati, milliy estrada san‘ati, tomosha san‘ati, kino va televideniya, tsirk bayram tadbirlaridagi texnik vositalardan foydalanish, zamonaviy texnologiya yutuqlarini amaliyotga tadbiriq etish masalalari ham bu sohaning naqadar muhimligini tasdiqlaydi.

Zamonaviy texnik vositalardan foydalanish xizmati orqali yuqori darajada madaniy xordiqiy dam olishni tashkil etish, boshqarish bilan bir qatorda ta‘limning barcha yo‘nalishlarida o‘sib kelayotgan barkamol yosh avlodni zamonaviy texnika vositalar, yangi axborot texnologiyalari yordamida g‘oyaviy, ma‘naviy-ma‘rifiy va estetik tarbiyalashning muhim omillari sifatida katta ahamiyatga egadir.

Texnik vositalarning yana bir vazifasi sahnaga har xil ranglar berish, proyeksion tasvirlar tushirib, tadbirni go‘zallashtirish va badiiy – g‘oyaviy bezashdan iboratdir.

Ijtimoiy – madaniy tadbirlarda foydalaniladigan texnik vositalar, asosan, 2 guruhga bo‘linadi:

1. Nurli-proyeksion apparatlar
2. Ovozli texnik vositalar

Nurli – proyeksion apparlar tomoshabinlarning kayfiyatini ko‘tarishda, ularning diqqatini tadbir voqealarining kerakli tomoniga jalb qilishda muxim rol o‘ynaydi. Proyeksion apparlar yordamida sahnaning to‘riga, ya’ni ekranga xohlagan kattalikda tasvir tushirish mumkin. Ovozli texnik vositalarga ovozlarni yozadigan va tarqatadigan apparlar, ya’ni magnitafon, diktafon, radio, audio, video apparaturalar, mikrafon va ovoz kuchaytirgichlar kiradi. Ular kerakli ovozlarni, shovqin-suronlarni, musiqa, ashula va nutqlarni oldindan yozib olib, ularni tadbirda eshittirish uchun yaxshi imkiniyatlar yaratib beradi.

Zamonaviy interfeyslar deganda nimani tushunamiz (Foto video moslamalar)dan iborat zamonaviy texnik vositalarni tushunamiz.

Rasm (fotografiya) (yorug‘lik yordamida yozish), ya’ni yunoncha so‘zdan olingan bo‘lib yorug‘lik-yozaman so‘zlaridan olingan.

Fotografiya ya’ni rasimga olish haqiqatni aks etiruvchi vosita bo‘lib, hayotda aks etgan voqiylikni, haqiqatni, yangilikni fan va texnikaning rivojlanishini xullas insonlarga bor narsani o‘zgartirmay yetkazadi.

Ana shu olingan rasmlar orqali ko‘rgazmali tashviqot-targ‘ibot va informatsiya vositalari sifatida foydalaniladi.

Fotografiya shunday texnika vositasiga kiradiki hayotning turli javxalarida uning xizmatidan foydalanamiz.

Faraz qiling okean toshqini, ko‘z ilg‘ab bo‘lmaydigan to‘lqinlar, insonlarning suv balosi bilan kurashishi, uylar, hatto texnika ya’ni mashinalarning, daraxtlarning ildizadan ko‘chishi, qirg‘oqlarning yemirilishi bir zumda butun bir qishloqni yer bilan yakson bo‘lishi biz siz bilan gaplashayotgan ya’ni muloxaza yuritayotgan fotografiyada rasmda aks ettirilishi, bu bir qaraganda insonlarni tabiat balosidan ehtiyot bo‘lishga tabiat balosidan har narsani kutish mumkinligini ko‘rsatsa ikkinchi bir tamondan esa mutaxassislarni ana shu baloning oldini olish chora tadbirlarini izlashga o‘ylashga yordam beradi.

Kosmek kemalarda yasa planitamiz va oyning siz bilan biz bilmaydigan qirralarini ya’ni olamshumil yangiliklarini yetqazib beribgina qolmay olimlar

mutaxassislar boshqotirish kerak boʻlgan yangiliklar moʻjizalar keltirmoqdaki bu faqat olimlarimiz tomonidan oʻrganilib chiqilib kelajakga xizmat qiladigan olamshumil kashviyotlar yaratilmoqda.

XULOSA

Madaniy tadbirlarni tashkil etishda 3 G, 4 G formatdagi texnologiyalardan keng foydalanish maqsadga muvofiqdir. Texnik vositalardan foydalanish orqali bezatish ishlari insonlarda estetik didni shakllantiradi, san'at asarlarini tushunish va qadriga yetishni o'rgatadi, mehnatga hurmat bilan qarash bilan birga unga bo'lgan muhabbatni tarbiyalaydi, mehnat qilish ko'nikmalarini egallashda yordam beradi. Hozirgi kunda kelib rivojlangan texnik vositalardan foydalanish ishlariga, umuman zamonaviy texnik vositalarga e'tibor kuchaymoqda. Xususan "Sharq taronalari"-XI xalqaro festivalida foydalanilgan videoproyksion namoyish yig'ilganlarda hayratni uyg'otga. Milliy qadriyatlarimizni zamonaviy yexnologiyalar orqali namoyon etish O'zbekistonning dunyo hamjamiyatidagi obro'-e'tiborini oshiradi. Mamlakatimizning turizm salohiyatini rivojlantiradi.

Chet ellarda tashkil etiladigan shou-dasturlarining asosiy maqsadi ko'proq mablag' topishga qaratilgan. Mablag'ni qoplash uchun esa ular pulni ayamay sarf qiladilar va yaxshi natijalarga erishadilar ham. Tomoshabinni jalb qilish uchun maxsus kishilar shug'ullanadilar.

Ammo shuni ham aytib o'tish joizki, madaniy hayotdagi, ko'pgina kamchiliklar, jumladan, ayrim kinolarimizdagi bachkana tasvirlar, teatrlarimizda qo'yilayotgan spektakllarning talab darajasida emasligi, milliy estradamizda g'arbona andozalarga taqlidning kuchayib borayotganligi, gazeta do'konlarini ko'plab -oldi qochdi nashrlar bosib ketayotganligini ham yoshlar tarbiyasiga ijobiy ta'sir etadi, deb bo'lmaydi.

Yuqorida aytib o'tganimizdek, ma'naviy-ma'rifiy, musiqiy, adabiy-badiiy va boshqalarni umumiy nom bilan madaniy-tadbirlar deb aytsak to'g'ri bo'ladi.

Madaniy tadbirlar turlari to'g'risida gap borganda, ma'lum ssenariy asosida o'tkaziladigan barcha tadbirlar majmuini - madaniy tadbirlarni tashkil etish - ularning turlaridan kelib chiqqan holda yondoshilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, jamoat tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladigan ijtimoiy loyihalar, madaniy tadbirlar yoshlarimizning

jamiyatdagi o'z o'rnini aniqlab olishiga va o'ziga muvofiq o'rin topishiga, o'z manfaat va maqsad-muddaolarini shakllantirishiga hamda ongli, mustaqil pozitsiyaga ega fuqarolar bo'lib voyaga yetishiga ijobiy turtki bo'ladi. Ixtiyoriy, o'zining faolligidan kelib chiqib bunday jarayonlarda ishtirok etish har bir yosh yigit-qizga o'z qobiliyat va salohiyatlarini to'la namoyish etish bilan birga, jamiyatga ijobiy ta'sir etish imkonini ham yaratadi. Jamiyatning demokratlashuv darajasi nodavlat notijorat tashkilotlarning soni bilan belgilanmaydi va aksincha, ularning samarali faoliyatigina yoshlar ijtimoiy faolligini oshirishga, jamiyatdagi mavqeyini mustahkamlashga va ularda fuqarolik jamiyati ko'nikmalari hosil bo'lishiga xizmat qilishi mumkin.

GLOSSARIY

Rejissyor -*Fran.* «regisseur», *lot.* «regō» – boshqaraman (upravlyayu) soʻzidan olingan. Spektakl, tomoshani sahnalashtirish ishlari badiiy rahbari.

Rejissura-Dramatik asarlarni sahnaga koʻchirishdagi rejissyorning ish jarayoni.

P'esa -*Fran.* piyese – «butun yoki umum» soʻzidan olingan. Xilma-xil sahna asarlari (drama, komediya, tragediya)ning umumiy nomi.

Monolog -*Gr.* «mono» – bir, «logos» – soʻz, bir kishi tomonidan ijro etiladi.

Remarka -*Fran.* «remergue» – muallif tomonidan beriladigan izoh.

Parodiya -*Gr.* «para» – qarama-qarshi, zid, «ode» – qoʻshiq. Satirik ijodning bir turi boʻlib, odatda biror yozuvchi ijodi yoki alohida asarning kulgili yoki yaramas tomonlarini ochib koʻrsatib beruvchi sheʼriy yoki nasriy asar.

Dramaturgiya -*Lot.* «harakat» soʻzidan olingan. Drama – harakat va kishilarning oʻzaro soʻzlashuvidan tarkib topadi. Yozuvchining drama shaklida yozgan asarlar yigʻindisidir. Sahna uchun muljallanib yozilgan asarlar majmuidir.

Senariy -*Ital.* «scenario» – asarning rejasi demakdir. Oʻtkaziladigan bayram yoki tomoshaning toʻliq yozma bayoni.

Askiya -Azkiyo – arablarning «zakovat» soʻzidan olingan, zehni utkir degan maʼnoni anglatadi, askiya – ikki kishi yoki bir necha guruhlardan iborat soʻz oyinlarining muayyan mavzu ustidagi tafakkoʻr musobaqasi – soʻz jangidir.

Kompozitsiya -*Lot.* «qurmoq» – asar qismlarining tuzilishi, mantiqiy joylashishi va uning oʻzaro bogʻlanishi.

Masal -*Ar.* urnak, maqol, namuna degan maʼnoni beradi. Masal – majoziy xarakterdagi qisqa hikoya boʻlib, ahloqiy va tarbiyaviy fikrlarni ifodalaydi.

Sheʼr -Ohang jihatidan bir tartibga solingan, his-tuygʻu ifodasi sifatida vujudga kelgan, hayajonli ritmik nutqdir.

Qoʻshiq -Kuyga solib aytiladigan sheʼr. Unda kishilarning his-tuygʻu kechinmalari ifodalanadi. U sheʼriy matn va musiqa uygʻunligidan iborat boʻladi.

Improvizatsiya -(*lot.* Improvisus) – tusatdan, kutilmagan, tasodifan degan maʼnoni bildiradi.

Interpretatsiya -(*lot.* tushuntirish, talqinlash) asarlarning ijodiy ijro etishdagi talqini.

Opera -(*ital.* opera – ijod, asar) musiqali dramatik asar; musiqa, sahnaviy harakat va nutq sintezidan tashkil topgan mus. dr. asar.

Pantomima-*Gr.* «pantomimos». 1.Turli harakat va mimikalar bilan fikr va hissiyotlarni ifodalash. 2.Soʻzsiz, turli harakat, mimika va musiqa joʻrligida badiiy obrazni gavdalantirib beruvchi teatr sanʼati turi. 3.Balet sanʼatining asosiy elementlaridan biri. Bir soʻz bilan aytganda, gavda va uning aʼzolari yordamida bajariladigan ifodali harakat.

Popurri -(fran. pot-pourri – turli gusht va sabzavotlardan qilingan ovqat) – turli asarlardan olingan parchalar asosida tuzilgan ijod mahsuli.

Premiera -(fran. premiyer – birinchi, bosh) – biror ijod namunasining ilk ijrosi.

Skomorox -(mazaxchi, kuldiruvchi) – o’rta asr rus professional xalq artistlari.

Festival -(ing. va fran. festival – xushchaqchqlik, bayram) – katta madaniyat va san’at bayrami, musiqa, teatr san’ati tanlovi, konko’rsalar.

Folklor -(ing. folk – xalq, lore – bilim) xalq bilimi, xalq donishmandligi.

Estrada -(fran. yestrade – taxtasupa, minbar) – 1. Konsert ijrochilari uchun qurilgan taxtasupa, sahna. 2. Estrada yoki estrada san’ati va sahna san’atining bir turi bo’lib, turli shakldagi ijrochilarni birlashtiruvchi tashkilot.

Etyud-(fran. etude – mashq, o’rganish) – ijrochilik mahoratini oshirish uchun qilinadigan mashqlar.

Prolog -Gr. «prologos» – asardagi voqealarning boshlanish qismi.

Kulminatsiya-Lot. «culmen, culminis» – cho’qqi, harakat rivojlanishining eng yuqori nuqtasi.

Bayram -Turkcha «toy-marosim, xursandchilik, shodiyona», qadimgi yahudiy (dr.evr.) tilida «xach-xachat» – raqsga tushmoq, lot. festivus – «bayramona» degan ma’noni anglatadi.

Melodrama -Gr. «melos» – ashula, «drama» – harakat. O’rta asrlarda ashulali va musiqali dramalarni melodrama deb atagan.

Aktyor -Fr. akteur, lot. Aktor – ijrochi, harakat qiluvchi degan ma’noni bildiradi.

Shtamp -Aktyorlik mahoratiga xos bo’lgan tushuncha bo’lib, ichki mazmundan ajralib qolgan tashqi harakat.

Xunarmandchilik (remeslo) - Aktyorlik mahoratini yuzaki o’rganish (ko’chirmachilik).

Taqlid, namoyish san’ati -Tashqi jihatdan tomoshabin uchun oynash.

Kechinma san’ati-Bu yo’nalishda ichki va tashqi texnikasini o’z ixtiyoriga buysindira olgan, haqqoniy harakat qilish texnikasini o’zlashtirgan aktyorlar nazarda tutiladi. Stanislavskiy sistemasining mohiyati ichki kechinma san’atiga asoalanadi.

Butaforiya -Sahnalashtirish jarayonida haqqoniy predmetlar o’rnida ishlatiladigan, atayin sahna uchun yasalgan jihoz, predmet.

Loja -fr.loge, tomosha zalidagi barer bilan ajratib qoyilgan joy.

Mizanssena -fr.mise en scene – sahnada joylashish. Konfliktlarni plastik harakatga ko’chirish, sahnada aktyorlarning joylashuvi, harakati, kichik sahnalar.

Anturaj -Sahnaviy kengliklarni raqs harakatlari bilan tuldish, boyitish.

Balet -(fran. Ballet, lot. Ballo – raqsga tushaman, uynayman) – sintetik san’at turlaridan, sahnada ko’rsatiladigan badiiy asar, mimika va xoreografiya obrazlari bilan ifoda qilinadi.

Repertuar *-(fran. royxat)* – yakka sozanda, ansambl, teatr jamoalarining ijro etiladigan jami asarlari majmui.

Repititsiya *-(lot. repetito – qaytariq)* – mashq, tayyorgarlik. Rasmiy ijro oldidan o'tkaziladigan tayyorgarlik.

Analiz *-(yun. analysis)* – qismlarga bo'lish, tahlil qilish.

Aranjirovka *-(fr. arranger)* – tartibga solish, to'zatis; bir yo bir necha cholg'u asboblari uchun yozilgan musiqa asarini boshqa bir yoki bir necha cholg'u asboblari muljallab tatbiq etish.

Artist *-(fran. artiste – san'atkor, ijodkor, lot. ars – san'at)* – musiqa, drama va boshqa shu kabi san'at turlarini ko'pchilik o'rtasida ijro etuvchi, bajaruvchi va bu san'atni o'ziga asosiy kasb qilib olgan kishi.

Ballada *-(ital. ballade)* – adabiy-poetik janr bo'lib, xalq utmishi yoki o'tgan davr haqida she'riy qissa.

Bolero *-(isp. bolero)* – juft bo'lib uynaladigan ispan xalq raqsi.

Vals *-(fran. valse, nem. walser)* – ikki kishidan bo'lib, ohista uynaladigan ball raqsi.

Vodevil *-(fran. vaudeville)* – 1. Musiqa jurligida ijro etiladigan yengil hajviy asar. 2. Hajviy opera va pesalarda sahnada qatnashuvchilarning hammasi tomonidan ijro etiladigan naqoratli qo'shiq.

Dialog *-(yun. dialogos)* – ikki kishining o'zaro suhbalashuvi.

Diletant *-(ital. dilettante – ho'zo'r bermoq)* – san'at yoki fanning bir sohasi bilan professional holda emas, aksincha shunchaki havaskorlik yo'lida shug'ullanuvchi.

Janr *-(fr. genre – tur, uslub)* asarning tuzilishi, ijrochilik tarkibi, xarakteri bilan ular turlicha bo'ladi. Masalan, dramatik asarlarning drama, komediya, tragediya turlari mavjud.

Mehrjon -Jon sevgisi, quyosh demakdir. Kuz, hosil bayrami.

Montaj *-fr. montage* – epizodlar, bloklar, voqealarni bir-biriga mantiqiy jihatdan bog'lash.

Artikulyatsiya *-lot. Articulo* – nutq jarayonida talaffo'z organlarining turlicha shakllanuv harakati.

Diktsiya *-Lot. dictio* – tovush va so'zlarning talaffo'z etilishiga aytiladi.

Orfoepiya *-Yun. orphos* – to'g'ri, epos – nutq, adabiy talaffo'z meyorlarini belgilab beruvchi qoidalar majmuasidir.

Spektakl *-Lot.* – tomosha, sahnaga qoyiladigan teatr tomoshasi.

Etakchi xatti-harakat -Oliy maqsadga olib chiquvchi yo'l.

Oliy maqsad -Rejissyorning sahnalashtirishdagi xususiy fikri, nuqtai nazari. (Stanislavskiy sistemasi printsiplaridan biri (B.Zaxava)).

Korfarmon -Masxaraboz va qiziqchilar teatri, ijrochilar rahbari, xalq an'anaviy teatri rejissyori, ish boshi.

Rakurs *- fr. raccourci* – o'zoqdagi buyum tasvirining kichraytirilgan ko'rinishi.

Syujet *-Fr. sujet* – predmet, narsa, mavzu, mazmun. Badiiy asarning o'zaro bog'lovchi va jonlantirib boruvchi voqealar tizimi, fabo'laning yoritilishi.

Adabiyot -Ar. odoblar yig'indisi, odoblar xazinasi, degan ma'noni bildiradi.

Badiiy obraz -Ijodkorning fikr, tuyg'u, sezgi va kechinmalari singdirilgan hayot manzarasi tasviri.

Obraz -Keng ma'noda ijodkorning fikr-tuyg'ulari singdirilgan hayot manzarasini anglatadi, tor ma'noda badiiy asarda aks ettirilgan inson siymosini ifodalaydi.

San'at -«Sun», ya'ni «yaratmoq» so'zidan olingan bo'lib, badiiylik yaratish, voqelikni obrazlar vositasida aks ettirilishi.

Ko'chim -Eng ko'p ishlatiladigan badiiy vositalar jami bo'lib, metafora atamasi bilan ham yuritiladi. Kuchimning majoz, istiora, ramz, timsol singari ko'rinishlari bor.

Allegoriya (majoz) -Ramzning bir ko'rinishi bo'lib, voqea-hodisa yoki narsa buyumning mavhum tushunchasi o'rnida aniq tasvirini ifodalovchi ramziy obrazni qo'llash usuli. M: tulki – ayyor.

Metafora (istiora) -Ar. biror narsani omonatga (vaqtincha olmoq) degan ma'noni ifodalaydi. Bir predmetning ma'nosini boshqa predmetga kuchishi. M: Xumo qo'shi – baxt belgisi.

Ramz -Ruscha – simvol, gr. Symbolon – belgi, anglash murakkabroq bo'lgan mavhum ahloqiy sifatlar, shu sifatlarga ko'proq ega bo'lgan narsa va jonivorlar orqali ifodalash.

Xarakter -(yun. xususiyat, belgi) – obrazning mukammallashgan ko'rinishi, turli xususiyatlarni aniq ko'rinib to'rgan, yakka xususiyatlari kashf etilgan shakli.

Innovatsiya- ing. Yangilik kiritish, yangilik.

Interaktiv (interfaol)- ing. inter – “o'zaro” va akt – “harakat qilmoq” (o'zaro harakat qilmoq).

Vizual-ko'rish orqali qabul qilinadigan axborot(obrazlar, rasm,film)

Audil-eshitish orqali qabul qilinadigan axborot

Kinestetik- his qilish orqali qabul qilinadigan axborot (hid, ta'm bilish va b.)

Katexizik suxbat -(yun.katechesis-nasihahat, o'git ma'nosini anglatadi)- biron-bir ta'limot asoslarini savol-javob tarzidagi qisqacha bayoni.

Publitsistika - (lot. ijtimoiy) – keng ma'noda, ijtimoiy-siyosiy hayot masalalarini yoritadigan barcha turdagi asarlar. Tor ma'noda, davlat va jamiyat hayoti masalalariga bag'ishlangan ijtimoiy-siyosiy va ilmiy adabiyot.

Portret -Kishining tashqi qiyofasi, siymosi, kiyim-kechagi o'zini to'tishi va h.k.lar tasviri.

Pamflet -Ing. qo'ldagi varaq. – biror ijtimoiy to'zum voqelik va siyosiy partiya faoliyati, dasturi ustidan utkir hajv orqali kuluvchi kichik satirik asar.

Modern-Fr. yangi, zamonaviy.

Inssenirovka -Lot. insurgens – nasriy va nazmiy asarlarni teatr uchun qayta ishlash. Adabiy asarlarni dramatik holatga keltirish.

Eortologiya-«*eorto*» – bayram, «logos» – o’rganish, bayramlar haqidagi fan.

Aholi – (arabcha “aql” soʻzining koʻpligi). Maʼlum bir hudud, viloyat, mamlakat va shaharda istiqomat qiluvchi odamlar. Milliy aholi. Shahar aholisi.

Mahalla – arabcha “joy”, “oʻrin”, “makon”. Shaharning maʼlum bir hududini oʻz ichiga olgan va aholisi bir jamoaga birlashgan, oʻzini-oʻzi boshqarishga asoslangan ijtimoy-hududiy boʻlagi.

Maʼnaviyat – arabcha axloqiy holat. Barcha ahloqiy narsalar, xususiyatlar. Insoniyatning falsafiy, huquqiy, ilmiy, badiiy, diniy, ahloqiy va h.q tasavvurlari majmui. Maʼnaviyyat insonning, xalqning, jamiyatning, davlatning kuch-qudratidir.

Madaniyat – arabcha soʻz boʻlib, hozirda uning yangi termini mavjud. Yaʼni Madaniyat insonni tabiatdagi, jamiyatdagi, oʻzlashtirgan, oʻzgartirgan, moddiy va maʼnaviy boyligi.

Yoʻl xaritasi – Qabul qilingan qonunlar, farmonlar va qarorlar samarali amalga oshirish, koʻzlangan rejalar va muddaolarni roʻyobga chiqarish mexanizmi. “yoʻl xaritasi” – qonunlar va boshqa huquqiy meʼyoriy hujjatlarning ochiq, oshkora va shaffoflik bilan hayotga joriy etilishini taʼminlaydi.

Konsepsiya – Biror bir sohaga oid qarashlar, tamoyillar tizimi, faktlar va hodisalarni tushunish, anglash va izohlashning muayyan usuli, asosiy nuqtai nazari.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROYXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T.: O‘zbekiston, 1992.
2. Ўзбекистон Республикаси Қонунлари
 - 2.1. Ўзбекистон Республикасининг “Маданий меърос объектларини муҳофаза қилиш ва улардан фойдаланиш тўғрисида”ги қонуни, 2001 йил 30 август.
3. Ўзбекистон Республикаси Президенти фармонлари
 - 3.1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son Farmoni. 2017-yil, 9-fevral
4. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси қарорлари
5. Ўзбекистон Республикаси Президенти асарлари
 - 5.1. Karimov I. A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. Asarlar, -jild.- T.: O‘zbekiston, 1996 y.
 - 5.2. Mirziyoyev SH. Adabiyot va san‘at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma’naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir, “Xalq so‘zi”, 2017 yil 4 avgust.
 - 5.3. Karimov I. A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. Asarlar, -jild.-T.: O‘zbekiston, 1996 y.
 - 5.4. Karimov I. A. Bunyodkorlik yo‘lidan. Asarlar, 4-jild.- .: O‘zbekiston, 1996 y.
 - 5.5. Karimov I. A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas'ulmiz. Asarlar, 9-jild. T.: O‘zbekiston, 2001 y.
 - 5.6. Karimov I. A. Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak. Asarlar, 10-jild.–T.: O‘zbekiston, 2002 y.
 - 5.7. Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat –engilmas kuch. -T.: Ma'naviyat, 2008 y.
 - 5.8. Mirziyoyev SH. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollari bag‘ishlangan majlisidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi, “Xalq so‘zi”, 2017 yil 16 yanvar

- 5.9. Mirziyoyev SH. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent. "O'zbekiston", 2017.
- 5.10. Mirziyoyev SH. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda quramiz. Toshkent. "O'zbekiston", 2017 yil

Asosiy adabiyotlar

- 6.1. Sayfullayev B. "Tomosha san'ati tarixi va nazariyasi T.:, 2014 y.
- 6.2. Umarov M. "Estrada va ommaviy tomoshalar tarixi" "Yangi asr avlodi", T.:, 2009 y.
- 6.3. Sayfullayev B. va Mamatqosimov J. "Aktyorlik mahorati" T.: Fan va texnologiya, 2012 y.
- 6.4. Muhammad H. "Ssenariynavislik asoslari". Fan va texnologiya, - T.:, 2008 y.
- 6.5. Qoraboyev U., "Badiiy ommaviy tadbirlar", O'qituvchi nashr., 1986 y, 59 b.
- 6.6. A.D.Silin. "Rejissyorning ochiq maydonlarda va noan'anaviy sahnaviy kengliklarda ishlashi". M., 1988., 776
- 6.7. Ahmedov F.E. "Ommaviy bayram va tomoshalar rejissurasi va aktyorlik mahorati". T. CHo'lpon. 2007
- 6.8. Д.Н.Аль. Основі драматургии и сценарного мастерства. Л., 1991 г.
- 6.9. Abdusamatov X. Drama nazariyasi. T., 2000 y.

Qo'shimcha adabiyotlar

- 7.1. Salimov O., Quronboyev Q., Bekmurodov M., Tangirov L., Halilov N. "Yoshlarga donolar o'giti" G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.- T.: 2018 y. 16-bet. "O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning ma'ruzalaridan iqtiboslar"
- 7.2. Qodirov A., Narbayeva T., Nurmatova M., Quronov M., Bobojonova D., Mamatov X., Muhitdinova F., To'rayev SH., Daminov I., ... "Aziz va yagonamsan, jonajon O'zbekistonim!" uslubiy qo'llanma. T.:, Muharrir nashriyoti, 2018 y.
- 7.3. Salimov O, Quronboyev Q, Bekmurodov M, Tangriyev L, "Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari" O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev asarlari va ma'ruzalaridan olingan fikrlar, T.: Yoshlar nashriyot uyi, 2019 y. 55-b.
- 7.4. Siddiqova M. "Bugungi kunda yoshlar tarbiyasining ahamiyati" maqolasi. "Ilm-fan va ta'lim integratsiyasi" Respublika ilmiy-uslubiy maqolalar to'plami, T.:, "Lesson PRESS", 2016 y. 109-b.

7.5. Hasanov A. “Bilim: ezgulik va taraqqiyotga yo‘l”, T.: Turon zamin ziyo, 2015 y. 52-b.

Internet saytlari

8.1. www.ziyonet.uz.

8.2. Google.uz,

8.3. Uza.uz,

8.4. lexus uz,

8.5. Xabar.uz,

8.6. darakchi uz